

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

*Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani _____ dots.T.Rasulov
« _____ » _____ 2012 yil*

5141000-musiqiy ta’lim yo‘nalishi pedagogika-psixologiya fakulteti

IV kurs 406- guruh talabasi Mamanazarova Madinaning

«Asosiy vokal ko‘nikmalarini shakllantirish

yo‘llari»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____

p.f.n. dotsent M.Ismoilova

« _____ » _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Musiqqa kafedrasi mudiri

_____ kat. o`q. R.Primov

« _____ » _____ 2012 yil

QARSHI -2012 YIL
MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. O‘quvchilar ovozi va uning rivojlantirishda vokal malakavlarini shakllantirishning ahamiyati.	
I.1. Jahon va O‘zbek vokal san‘atini rivojlantirish tarixi.....	8
I. 2. O‘quvchilar ovozi tarbiyalashda vokal pedagogikasining nazariy ahamiyati.....	20
II. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarda vokal ko‘nikmalarini shakllantirish uslublari.	
II.1. Musiqa o‘qituvchisida vokal ko‘nikmalarini shakllantirishning ba‘zi muammolari haqida.....	26
II.2. Maktab o‘qituvchilarida vokal ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	37
II.3. Tajriba – sinov ishlarining natijalari va samaradorligini aniqlash.....	44
Xulosa	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati	54
Ilovalar	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida “Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Eng muhimi bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda”¹ – degan fikrlarini o‘qiymiz.

Ma’naviyat tushunchasi insonning ruhan va mafkuraviy jihatdan barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zbekiston millatining asrlab yig‘ib, avaylab, avloddan – avlodga eltib kelgan ma’naviy bisotining salmoqli bir qismi uning musiqasi, kuy va qo‘shiqlari hisoblanadi. Xalqimiz ayniqsa she’riyat bilan bevosita bog‘langan folklor qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, maqom sikllari, katta va mumtoz ashulalarga nihoyatda boy. Keyingi yillarda Yevropa uslubidagi vokal asarlari ham yaratildi.

Ayni paytda shuni alohida ta’kidlash lozimki, ashulachiligimiz va vokal san’atining kuylash monerasi va xonandalik sirlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar nihoyatda kam. Bu borada chet el olimlarining yozgan milliy ishlari, darslik va qo‘llanmalari anchagina. Hususan, Dimitriyev G. Zeydler, O.V. Gudneva, I.M. Gaziyeu, G.N. Maraxtonova, N.I. Kuznetsov, A.E. Hoffman va boshqalarning yozgan kitoblari va ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

O‘zbekistonda yashab, vokal uslubiyati bo‘yicha ilmiy ishlar yozgan mualliflardan G.Mullaqandov, Y.Rajabiy, I.Rajabiy, F. Karamagov, R.Abdullayev, I.P.Brizgalov, Y.N. Plaxova, H.Hamidov, N.Qaxxorov, O.Ibrahimov, M.Rizayeva, M.Hamidova, M.I.Ismoilova va boshqalar ham bu mavzuning ayrim qirralarini yoritib berganlar.

O‘zbekistonda kuylash uslublarining mohir ustalari Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov, Jo‘rahon sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Karim Zokirov va ularning izdoshlari vokal texnikasini to‘liq egallagan M.Hoshimov, B.Zokirov, S.Yarashev, YE.Yo‘ldoshev, H.Nosirova, S.Qobulova va boshqa ko‘plab ashulachilarning ovoz hususiyati va kuylash texnikasi ustida deyarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Vokalni ularning kuylash texnikasi va ashulachiligining sir-u asrorlari ochilmagan qo‘riq bo‘lib qolmoqda va yosh xonandalarning o‘zlariga aniq bir yo‘nalish topib olishlariga katta to‘sqinlik qiladi.

Biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda anashu dolzarb muammoning kichik bir tomonini yoritib berishga harakat qildik va mavzuyimizni: “Asosiy vokal ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari” deb belgiladik.

Tadqiqotimizning maqsadi 5-7 sinf o'quvchilariga musiqiy tarbiyani amalga oshirishda vokal san'atining o'rini, uning ta'sir kuchini aniqlash, o'quvchilar ovoz hosila tuzilmalari va talaffuzini rivojlantirish va vokal ko'nikmalarini shakllantirish uchun ta'sir ko'rsatadigan, samara beradigan uslub va vositalarni tanlab, amalda qo'llash, olingan ijobiy natijalarni amaliyotda tavsiya etishdan iborat.

Bitiruv ishimizning vazifalari: tanlangan mavzuning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilanadi.

1. O'quvchilarning qo'shiq kuylash orqali ovoz hosila tuzilmalarini rivojlantirishda samara beradigan yo'l va uslublarni aniqlash;
2. Tajribali musiqa va vokal o'qituvchilarining ish faoliyatini o'rganish va umumlashtirish;
3. Tajriba – sinov ishlarini olib borish va uning yakuniy natijalari asosida ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyanomalar ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti: umumta'lim maktablarida 5-7 sinf o'quvchilarida olib boriladigan musiqa madaniyati darslarining mazmuni hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: vokal san'ati orqali o'quvchilar ovoz hosila tuzilmalari va talaffuzini rivojlantirishni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Tatqiqot ishining ilmiy farazi: qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarda vokal malakalarini shakllantirishni samarali amalga oshirish mumkin, agarda:

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti: umumta'lim maktablarida 5-7 sinf o'quvchilarida olib boriladigan musiqa madaniyati darslarining mazmuni hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: vokal san'ati orqali o'quvchilar ovoz hosila tuzilmalari va talaffuzini rivojlantirishni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Tatqiqot ishining ilmiy farazi: qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarda vokal malakalarini shakllantirishni samarali amalga oshirish mumkin, agarda:

- O'quvchilarda vokal malakalarini shakllantirishda vokal san'atining o'rni va ahamiyati tarixiy va nazariy asoslansa;
- Vokal san'atidan vokal to'garaklarida foydalanishning samarali yo'l va uslublari ishlab chiqilsa;
- O'quvchilarni musiqa orqali tarbiyalashning maqsad va vazifalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa;
- Vokal asarlarini yaratgan mualliflarning hayoti va ularning yozish uslublariga xos xususiyatlari bilan o'quvchilarni tanishtirib borilsa;

¹I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”
Toshkent 2008 yil. 140-141 betlar.

- O'rganiladigan vokal asarlarining mazmuni bilan o'quvchilarni batafsil tanishtirilsa borilsa, ko'zlagan maqsadga erishish bir muncha osonlashadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari:

- tanlangan mavzuga taaluqli psixologiya, tarixiy, pedagogik, musiqiy metodik va vokal san'atiga doir adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- o'quvchilar bilan suhbat, bahs munozara yuritish, savol-javoblarni o'tkazish va sinov-tajriba ishlarini olib borish;
- vokal asarlaridan o'quvchilar talaffuzini rivojlantirishga yordam

beradiganlarini tanlab olish va ulardan musiqa madaniyati darslarida keng foydalanish tadqiqotning ilmiy yangiligi. Unda birinchi marta musiqa madaniyati darslarida qo'llash jarayonida o'quvchilarda vokal ko'nikmalarini shakllantirishning eng samarali yo'llarini ochib berilmoqda. Unda mustaqil fikrlash va o'z ovozi aniq olish va shu asosda vokal malakalarini shakllantirish muammosi xal qilib berilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini: Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning san'at va majdaniyatni rivojlantirish, o'quvchilar ongiga milliy istiqldol g'oyasini singdirish haqidagi fikrlari, ma'ruzalari va chop etilgan kitoblari, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining" mavzuga bag'ishlangan qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta –maxsus ta'lim statyalari, pedagog va musiqashunos olimlarning ishlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning nazariy va amaliy ahamiyati: Ilmiy ishimizni yozish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar tahlili, tajriba ishlari orqali to'plangan nazariy bilimlar va xulosalardan vokal mavzusiga bag'ishlab yoziladigan ilmiy maqolalar, ma'ruza matnlari, musiqa madaniyati darslari va vokal darslari uchun o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, hamda ilmiy ishlarni yozishda material sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv ishiga berilgan va ilmiy jihatdan asoslangan metodik tavsiyalardan bo'lajak musiqa o'qituvchilari va o'z ijodiy tajribalari jarayonida amaliyotda foydalanishlari mumkin.

Mazkur tavsiyalardan vokal darslari va musiqa madaniyati darslarida, vokal va xor to'garaklarida o'quvchilar ovozi yo'lga qo'yishda foydalansa bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishimiz bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida mavzuga taaluqli ilmiy, nazariy, pedagogik, metodik, tarixiy, psixologik, musiqiy adabiyotlar o'rganildi.

5-7 sinflarda musiqa madaniyati darslarini o'tish ahvoli kuzatildi va sinov tajribalarini o'tkazildi. Musiqa darsliklari tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

II bosqichda tajriba – sinov usullarining natijalari o‘rganildi, tahlil qilindi, umumlashtirildi va ulardan tegishli xulosalar chiqarildi. Shuningdek, bu bosqichda ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

III bosqichdagi tavsiya, xulosalar qayta tahlil qilinib, ishning milliy matni tayyorlandi.

Bitiruv malakaviy ishimiz tarkibi va o‘z ichiga Kirish, II bob, 5ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova qismlarini olgan. Tadqiqot ishida tajriba jarayonida foydalanilgan bolalar qo‘shiqlarining nomi, matni berilgan.

I. BOB. O'quvchilar ovozi va rivojlantirishda vokal malakavlarini shakllantirishning ahamiyati.

I.1. Jahon va O'zbek vokal san'atini rivojlantirish tarixi.

Vokal pedagogikasining rivojlanish davri uning tarixiy rivojlanishiga bog'liqdir. Bu tarix juda qadimiy davrlardan boshlangan. Bizning eramizgacha qadimiy Misr, kichik Osiyo va qadimgi Gretsiyada shodiyona bayramlar, musobaqalar, difiramb shaklida tuzilib, ijro etilgan. Qadimiy Gretsiyada (Yunonda) yakkaxon ijrochilar o'zlari shoir kompazitor bo'lishgan. Shu davrda erkak ovozlari bir necha turlardan iborat bo'lgan.

1. Netoid – bu ovoz virtuozlar ovozi bo'lib, bu ovoz orqali erkak ariya xilidagi asarlar ijro etilgan.
2. Mesoide- bu ovoz ommabop qo'shiqlar, xor uchun qo'llanilgan.
3. Iratoide- tragediya asarlarini ijro etish uchun qo'llanilgan.

XVI-XVII asrlar musiqa tarixi nazariy tushunchalar bo'lgan, ashulachilik va uning texnik uslublarini, ilmiy asosda ovoz hosil qilish jarayoniga bog'lay oladigan asarlar olib keldi. Bu asarlarning nomlari hozirgacha yetib kelgan bo'lib, vokal tarixining rivojida natija bergan.

Tsarino buyuk Rim o'qituvchisi o'zining "Garmoniya asoslari" asarida tovushning tabiiy hosil bo'lishida tabiat tomonidan berilgan tomoq, til, tanglay, o'pka qismlari tovush hosil qiladi va shu tovushdan so'z va ashula tug'iladi. Nutq haqida: unli tovushlar talaffuz paytida o'zgarmasligi va shu orqali ma'noli aytishga o'rgatish, hamda unilarning oddiy bo'lib qolmasligini kuzatib borish kerakligini aytib o'tgan.

Italiyadagi ikkinchi vokal o'qituvchisi Tsakkoniy "Musiqqa amaliyoti" deb nomlangan, hozirgacha saqlangan buyuk asarida ko'p tovushli va II, III tovush uchun yozilgan asarlarni ijro etishda yakkaxon boshqa tovushlarni garmoniyasi bilan qo'shib aytish bilsagina, shu asardan saqlana oladi, deydi. Tsakkoniy asaridagi melezmlarni ishlatish usullarini o'rganishda, yaxshi xonandalarni eshitib, o'rganishni tavsiya qilgan. Uning fikricha ko'krak tovushlari tabiiy xisoblangan, chunki bu tovushlar o'zining musiqiylikini va jarangdorligi bilan ajralib turadigan hususiyatga egadirlar, deb ayniqsa, undoshlarni ijro etish qattiq, kuchli va tez bo'lishini talab qilgan.

Vokalizlarni hamma unililar bilan aytish kerakligini, xalqumning harakatchanligi, trel va passajni aytib o'rganishga bog'liqligini ta'kidlab o'tgan. Bu uslublarni o'rganish asta-sekinlik bilan tez suratga o'tish imkonini bergan.

Djulio Kachchini (1545-1618). XVI asrda Florensiya shahrida kompozitor va shoirlardan iborat bo'lgan to'garak tuzilgan. Kachchini, Peri, Kavalieri va shoirlar Korsi, Bardi va Rinuchinilar (ular musiqiy qobiliyatga ega bo'lib, bu reformaning kelib chiqishiga sabab bo'lishgan). Keyinchalik bu to'garak Bardlar akademiyasiga aylangan. Manashu musiqiy

reforma opera, oratoriya, kantata kelib chiqishiga asos bo`lgan. Shu reformaning asoschilaridan biri bo`lgan buyuk tenr va kompozitor –reformatör Djulio Kachchini Rimda tug`ilgan.

1601 yil Kachchini madrigallar to`plamini nashr etib, unga “Nuove Musiche” («Новая музыка») – deb nom bergan. Nu asarda vokal metodologiyasi haqida buyuk fikrlar berilgan bo`lib, badiiy ashulachilik rivojida katta ahamiyatga ega. Djulio Kachchinini vokal pedagogikasi uchun qilgan eng katta xizmatlaridan biri, asar mazmunini boyitish orqali “esklamatsiya” uslubida ish olib borib, ovozni rivojlantirishga qaratilgan edi.

XVII asr oxiriga borib, operadagi dramatik voqea va uning mazmuni ikkinchi darajaga surilib, vokal virtuoz ijro o`shishiga ko`proq ahamiyat berila boshlandi. XVIII asr Italiya opera musiqasida erishilgan muvofiqiyatlar yo`qqa chiqib, xonandalar o`rtasidagi vokal texnik tomonidan olib boriladigan musobaqalar, misli ko`rilmagan darajada rivojlanib bordi. Bu davr ichida kastratlar vokal san`ati rivojlanishini eng yuqori pog`onaga ko`tarildi. Kostrat xonandalar vakillari Tozi, Ferri, Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberty-Porporino, Markezi va boshqalar vokal texnikasi rivojlanishida kamolot cho`qqisiga erishdilar. Bu xonandalar ikki oktavaliq gammalarni bir nafasda ijro etdilar.

Buyuk pedagog Porpora o`quvchilari ichida eng taniqli xonanda Kastratlar: Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberty-Porporino, Apianni, hamda ayol xonandalar Mingotti, Gabrielli va boshqalar bor edilar.

Porpora o`z o`quvchilarining asarlarini ifodali, chuqur ma`noli, virtuoz aytishga o`rgatdi. U o`qituvchilik asarlarini ifodali, chuqur ma`noli, virtuoz aytishga o`rgatdi. U o`qituvchilik faoliyati usullari bo`yicha yozilgan ilmiy asarlarini qoldirmagan. U faqat ko`plagan vokal mashqlarini yozib qoldirgan, hamda Kaffarellini besh yil davomida o`rgatgan taniqli “varaqa” mashqlari shular jumlasidan bo`lib, vokalpedagogikasi tarixida bu “varaqa” katta rol o`ynagan. Undan ko`p avlod o`qituvchilar foydalangan (Lablash, Garsiya va boshqalar).

Djoakkino Rossini Italyan vokal maktabining o`shishida o`zining kuchli ta`sirini ko`rsatgan. Uning operalaridagi virtuoz partiyalari, melodik chiziqlardagi qahramon harakterlarini ochib bergan. Uning eng noyob asarlari Italiyaning ijtimoiy hayotida buyuk rol o`ynagan bo`lib, klassitsizm yo`nalishi vakili bo`lgan buyuk Rossini Italiyada yana bir yo`nalish “Romantizm yo`nalishi” ga asos solgan.

Bu davrda Italiyada revolyutsion ozodlik harakatlari kuchaygan edi. Aynan shu vaqtda yirik kompozitorlar V.Belline va G. Donitsettilar o`z ijodiy ishlarini boshlashgan. Belline 34 yil umr ko`rgan bolsa-da, o`zidan keyin “Norma”, “Pirat”, “Somnambula” ga o`xshagan yirik asarlarni qoldirgan. Bu opera asarlari hozirgi kungacha jahon sahnasida ijro etiladi.

Belline bilan bir qatorda ijod etib, uzoq umr ko`rgan G. Donitsetti esa, juda ko`p opera sarlari yozga. Ulardan eng ko`zga ko`rinarlisi “Лючия Де Ламермур” va “Севги шароби”

operalarini yozgan. Bu ikki kompozitor romantizm yo`nalishida xizmat qilib, asosan fioritura (vokal bezaklari) uslubi ustida ishlab, bel kanto (go`zal ashula) usullarini rivojlantirgan. Ularning davrida xonandalar ko`krak qafasidan ko`proq foydalanishgan.

XIX asr buyuk va qudratli kompozitori Djuzeppe Verdi ijodi.

Verdi o`z davrining milliy g`ururi zamonaviy Italiya tovushi bo`lib, Italiyaning ta`sirchan siyosatida dovul barobaridagi qahramonona harakat bo`lib, u Italiya vokal pedagogikasi rivojiga musiqiy dramani olib kirgan buyuk kompozitor hisoblanadi. Uning 26 ta tragediya opera asarlari xonandalardan kosta-abdominal nafasidan foydalanishni talab qildi. Bu aralash nafas katta hajmdagi, katta kuchga ega bo`lgan ovozlarning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Shu bilan birga Italiya vokal maktabida misli ko`rilmagan ahamiyatga ega bo`lgan yo`nalish paydo bo`ldi.

Djakamo Puchchini (1858-1924). Bu yo`nalishda besh-oltita kompozitorlar ijod qilib, ularning ichida o`chmas iz qoldirgan kompozitor bu – Djakamo Puchchinidir. U haqida buyuk Verdi o`z bahosini berib, uni “mening davomchim” deb atagan va unga “Puchchini” (Italiya melodikasini ushlab turuvchi muhr) deb nom bergan. Puchchini o`z ijodida asosan “portamento” uslubini rivojlantirib, hosil qilish jarayonini boyitgan. Uning operalari “Chio-chio-san”, “Toska”, “G`arb qizi”, “Bogema” xozirgi jahon sahnasida katta o`rin olgan bo`lib, Puchchinining vokal uslublarini yuzaga chiqargan.

Nemis vokal maktabi. 1878 yildan boshlab Berlin operasida yosh xonanda Lilli Leman (1848-1929) lirik koloratura ovozi uchun yozilgan asarlarni muvaffaqiyat bilan ijro eta boshladi. 1878- yildan boshlab u dramatik soprano partiyalarini ham Germaniya va Amerika shaharlarida katta mahorat bilan ayta boshladi. 40 yildan ortiq chet ellarda gastrolga bo`ldi. Katta artistik va pedagogik faoliyatida boy vokal tajribasiga tayanib “Mening ashula aytish san`atim” nomli kitobini nashrdan chiqardi. Bu kitobdagi ba`zi bir kamchiliklarga qaramasdan, uning ayrim fikrlari, amaliy maslahatlari katta ahamiyatga ega. Uning nafas rezonatorlari, pastki, o`rta, yuqori registordalarda ovoz yuritish yumshoq tanglayning ko`tarilishi, ashula jarayonida til holati, sezgilari haqida aytilgan fikrlari shular jumlasidandir. O`ng ko`krak nafasi, ya`ni diafragmani ozgina qisqartirib, qovurg`alarni kengaytirib olingan nafasdan foydalangan. Uning fikricha xonanda gavda mushaklarini zo`r berib ishga solgandagina, nafasni nazorat qilishni sezi shga ega bo`ladi. Bu holatda nafas kam sarf qilinib, charchamasdan kuylashga o`rgatadi. Til, halqum, tanglay nazorat qilingan holda rezonans o`rinlariga yetkaziladi va bu qoida hamma ozvozlarga taaluqlidir, deydi O`qituvchi-xonanda o`z ovozining boshqa tovush holatlarini bosh rezonansga bog`lab borsagina, ovozni yosh va sof saqlab qoladi. Leman “A” unlisini ochiq aytishga yo`l qo`ymasdan “e”, “i” ga o`zshatib aytib, yuqori rezonatorga erishiladi deydi.

Buyuk rus kompazitori M.I.Glinka ajoyib xonanda va pedagog edi. Uning bebaho qo`shiqlari, romanslari va operalari, juda katta ahamiyatga ega bo`lgan ovoz rivojlantirish uchun

yozilgan mashqlari, qisqa, lekin juda boy mazmunli vokal uslubiy ko`rsatmalarida rus vokal maktabining muhim prinsplari aniqlab berilgan.

O`zining vokal mahorati orqali M.Glinka – xonanda va pedagog sifatida rus realistik ijrochiligiga asos soldi. U asos solgan rus vokal maktabi an`analarini eng buyuk pog`onaga ko`targan vokalistlar Shalyapin, Sobinov, Nejdanova va boshqalar.

Qo`shiqchilik mahoratini mukammal egallagan Glinka o`z bilimini boshqalarga bajonidil o`rgatishga tayyor edi.

Vokal san`atiga qizg`in ishqibozlik bilan yondoshgan bu buyuk kompozitor o`z o`quvchilari bilan o`tkazadigan amaliy ishlaridan tashqari, ovoz qo`yish jarayonining yangi metodika razrobotkalarini tuzib chiqqan. Glinka buyuk rus xonandasi 2 oktavalik diapazonga ega bo`lgan O.A. Petrov ovozi uchun “Упражнения для усавершенствования дипкостиголоса” deb nomlangan etyudlar qo`llanmasini yozdi. Petrov bu mashqlardan umrining oxirigacha foydalangan. Glinka uning ovozini “Могучи бас” deb atagan. Uning ovozigacha yozilgan etyudlar boshqalar ovozigacha to`g`ri kelmasdi. Shuning uchun etyudlar boshqa ovozlarga transport qilingan, shunga qaramasdan mashqlar 1 oktava atrofida edi. Buning sababi shundan iboratki, kompozitor fikricha mashqlarni emas, balki uning 2/5 qismida takrorlash lozim bo`lgan primar pardalardan foydalangan (ya`ni, ovozning o`rta qismi).

M.Glinka vokal tovushlarini rivojlantirishda qo`llagan “konsentrik” uslub, ya`ni primar pardalar atrofida mashqlar berish, juda yaxshi samaraga erishishga imkon berdi. Bu uslubdan hozirgi zamon o`qituvchilari foydalanib kelmoqda.

Glinka o`z o`quvchilaridan “A” unlisini Italyancha “A” ga o`xshatib aytishni talab qilgan, chunki Italyancha “A” o`tkir, to`liq jaranglaydigan, yarim esnash holatiga ega bo`lgan, yopiq aytiladigan hususiyatga ega. Uning uslublari: aniq talaffuz, normal ashulachilik “Vibrato” si, ovoz yumaloqligi, tovushni nafasga qo`yib aytishdan iboratdir.

Glinka soprano ovozigacha yozgan mashqlarda ham “Konsentrik” uslubni qo`llashni tavsiya etadi. Bu mashqlardan ko`p farq qilmaydi, faqat tonalnost “fa” majordan berilgan (“mi” dan boshlanib “re” gacha). Glinkaning xonandalik ijrosi juda buyuk, profisssional darajada bo`lib, u ayniqsa o`z romanslarini ijro etganda, shoirona, chiroyli qilib tasvirlash kuchiga ega edi. Glinka koloratura uslubini, yaltiroq, yorqin, juda yaxshi ijro etgan.

Uning fikrini ashula, buyuk ijrochilarning uslublari o`rganish, har kungi mashqlar, metodik tomondan o`zini rivojlantirish orqali yaxshi natijalar berdi va eng asosiysi, ashula o`qituvchisi, o`zi yaxshi xonanda bo`lishi shrt, shundagina u yaxshi yutuqlarga erishadi, degan.

O`zbek vokal tarixi.

Tarixiy rivojlanishning turli vaqt va davrlarida musiqa muhim rol o`ynagan. U o`zida xalqning ijtimoiy hayoti, intilishi va armonlarini aks ettiradi. Qirg`izlar kabi o`zbeklar ham she`riyat va musiqaga katta muhabbat qo`ygan.

O`zbek xalqining musiqiy me`rosi ikki katta bo`lakka bo`linadi.

1. Xalq qo`shiqlari va cholg`u kuylari;
2. Og`zaki ijodning professional musiqasi;

Ular musiqaning mazminidan, hamda ijrochining mahoratidan ma`lum bo`ladigan o`z hususiyatiga ega. Vokal musiqasi- ijrochilik san`atining qismidir. Har bir bo`limga aniq janrlar xosdir. Musiqiy folklor janri turli-tumanligi bilan farq qiladi. Ikki katta guruhga bo`lingan musiqiy folklor qo`shiqchiligi turli-tuman janrlari bilan ajralib turadi. Birinchi guruh – (mayda paxta terimi), to`ylar (yor-yor), aza (yig`i, marsiya), onalar qo`shig`i (alla) kabi qo`shiqlardan tashkil topgan. Ikkinchi guruh-o`zbek xalqi hayotining turli tomonlarini aks ettirgan qo`shiq, lapar, yalla, ashulalardan tashkil topgan. Birinchi guruhdan ular musiqiy vositalarning keng diapazoni bilan farq qiladi. Vokal qo`shiqchilik janrlarida ashulalar-lirik qo`shiqlar alohida o`rin egallaydi. U chuqur musiqiylik, nozik ritm va tuyg`u hislatlariga ega.

Ashula janridagi lirik qo`shiqlar Navoiy, Fuzuliy, Furqat kabi shoirlarning she`rlari yoki xalq she`rlari asosida yaratiladi.

Og`zaki professional musiqa musiqa janrlari orasida maqomlar, ya`ni ko`p qismli vokal – cholg`u sikllariga alohida o`rin ajratiladi. O`zbekistonda Buxoro va Xorazm maqomlari mavjud. Shashmaqom XVIII asrda Buxoroda shakllangani sababli, u Buxoro Shashmaqomi nomi bilan yuritiladi. Shashmaqom Xorazmda yettinchi qism “Panjgoh” bilan to`ldiriladi.

Har bir maqom ikki qismdan iborat. Cholg`u va vokal cholg`u. bundan tashqari Buxoro Shashmaqomi raqs qismi (Ufor) dan ham iborat. Maqomning asosiy – vokal cholg`u (nasr) qismi juda katta: kirish qismi (sarahbor) bilan boshlanadi, so`ngra vokal yakkaxon qo`shiq qismi orasida (tarona) qo`shimchalari bilan (tarona) – xor qo`shiqlari aytiladi.

Maqomlar asosan X-XIX asr xalq va klassik shoirlar Rudakiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Navoiy kabilarning sevgi-muhabbat haqidagi lirik she`rlari asosida aytilar edi. Maqomning bir qismini bir necha matnlar uchun ijro etish mumkin. Maqomning vokal – cholg`u qismini galma-gal bir necha qo`shiqchi-solistlar ijro etishi mumkin edi. Bu maqom ijrosining davomiyligi 6-10 minut kuylanar edi. Maqom hamda lirik qo`shiqlarga, tinglovchilarga imotsional ta`sir etish uchun avjlarni kiritishar edi.

Vokal ijrochilik madaniyati uch yo`nalishda rivojlanadi: birinchi yo`nalish. Buxoro va Xorazm maqom siklini ijro etuvchi professional qo`shiqchilar tashkil etar edi. Ulardan eng taniqlilari xon saroylarida qo`shiq aytar edi. Shashmaqomning buyuk bilimdonlari qo`shiqchi ota

Jalol Nosirov va cholg`uchi ota G`iyos Abdug`ani Buxoroning oxirgi amiri Said Olimxon saroyning doimiy qo`shiqchi va cholg`uchilari hisoblanar edilar.

Saroy artistlariga qiyin edi, chunki ular hukmdorning buyrug`i va injiqliklariga qarab ish yuritir edilar. Faqat bayram kunlaridagina ular xon buyrug`i bilan, bozor maydonlarida xalq uchun ijro qilar edilar. Xonliklar vokal musiqachiligi va xalq ijodiyotining barcha ko`rinishlarining erkin rivojlanishida ochiqdan-ochiq to`squinlik qilar edilar. O`zbek musiqasi shahar chetlari va qishloqlariga siqib chiqarildi, uning malakasi namoyondalari esa kamsitilib, haqoratlandi.

Xonliklarning barcha to`squinliklari va quvg`inliklariga qaramasdan, o`zbek musiqasi rivojlanib bordi.

Qiziqchi, qo`g`irchoqboz, laparchi va baxshilar – xalq qo`shiqchilik san`atini saqlab qolgan fidoiylari hisoblanadi. Ayniqsa, qiziqchi – masxarabozlarni xalq sevardi. Ularning qo`shiq aytar, kamida ikki xil cholg`u asbobini chalishni bilar, ijtimoiy ma`nodagi sahna ko`rinishlari va pantomimalar ijro etar edilar. Eng taniqli qiziqchi – bu Yusuf qiziqchi (Shaharjonov Yusuf) edi. Qo`shiqchi-masxarabozlar qushlarga taqlid qilish qobiliyatiga ega edilar. Satirik sahna ko`rinishlarida qobilatsiz qo`shiqchilarning qo`polliklari va nodonliklarini kulgu ostiga olar edilar. Birorta bayram ularsiz o`tmaydigan, qo`shiqchilarning san`atini xalq yuqori baholar edi. Toshkent va Farg`onada qo`shiqchilarni – yallachi, Buxoroda sozanda, Xorazmda xalfa deb atalar edi. Ularning ijrosidagi qo`shiqlar shakliga ko`ra oddiy, mazmuniga ko`ra xilma – xil: lirik xazil, o`yin va raqs qo`shiqlari. Toshkent va Farg`ona qo`shiqlari yalla va laparlarni, Buxoro qo`shiqlari esa, raqs bilan bog`liq bo`lgan kichik qo`shiqlarni afzal ko`rsalar, Xorazm xalfalari esa terma va laparlarni afzal ko`radilar. Qo`shiqchilar dutor va doira jo`rligida kuylaydilar, Xorazm xalfalarida esa garmon katta ahamiyatga ega.

Turkiston o`lkasining qishloq joylarida eng sevimli xalq san`ati tuyrlaridan biri dostonlar edi. Ularda jasorat, qahramonlik, sevgi va sadoqat kuylanadi. Doston ijrochilari baxshilar bir vaqtning o`zida ham shoir, ham improvizator, ham qo`shiqchi, ham musiqachi edilar.

Vokal ijrochiligidagi uchinchi yo`nalish – bu qo`shiqchi havaskorlar, turli kasbdagi bo`sh vaqtini san`atga bag`ishlagan kishilar edilar. Ular bayram, ov, urf – odatlar bilan bog`liq lirik qo`shiqlarni kuylar edilar. Havaskorlarning ijrochilik darajasi ba`zan malakaviy qo`shiqchilarnikidan qolishmas edi.

Vokal ijrochiligining an`anaviy usullari:

Vokal ijrochiligining (darajasi ba`zan) ko`p asrlik rivojlanish davrida milliy uslublar ham shakllanib keldi. Bular asosan uch an`anaviy yo`llarda o`z ifodasini topdi: gulligig-tomoq, binnigi-burun, ishkami-qorin.

Binnigida kuylanganda ovoz temblari burun bilan talaffuz qilinadi va so`ning aniqligi buziladi. Bunda ovoz sun`iy ravishda burun kengligiga yo`naltirib, diafragma yetarlicha ishlamasligi, bo`yin mushaklari taranglashishi natijasida yuzaga keladi. Yuqori registr bilan binnigi qo`shiqchilari yaxshi aytadilar, lekin o`rta va past registr keragicha to`ldirilmaydi.

Lekin gulligi qo`shiqchili tinglovchilar oldida muvoffoqiyat qozongan. Taniqli Xorazm qo`shiqchilari Matyusuf Xazratov va Madrahim Yoqubov qo`shiqchilikning bu turini mukammal egallagan edilar.

Gulligi ijrochilariga tomoqda aytish uslubi mansubdir. Bunda (ovoz apparatining muskullari siqilishi natijasida) ovoz tembri “quruq” va “dag`al” ta`sirchan va yoqimlilikdan holi bo`ladi.

Lekin gulligi san`atida qiziquvchilar ham yo`q emas. Sababi, ular qo`shiq aytish davomida ovozni kuchaytirib beradigan narsalar, patnis, tarelka, chirmandalardan mohirlik bilan foydalanadilar.

Qo`shiqchilar ulardan foydalanib, mohirona ovozlari kuchaytirib beradilar va ovozga “to`lqinsimon” tembr beradilar. Ovoz kuchaytiruvchi narsalarni qo`llashni mukammallik darajasiga yetkazib, ular noodatiy ohanglar va turli ijro uslublarini yaratishga erishadilar. Ishkami vq xonakoy usuli qo`shiqchilari birinchilikni va xalq hurmatini qozondilar. Ishkami va xonakoy ochiq havoda ham, yopiq gumbazlik saroylarda ham birdek yaxshi jaranglaydi. Xonakoy ustalari odatda barcha ovoz kuchini o`zgartiruvchi narsalar bilan ajoyib ovoz duktsiyasiga, hamda chuqur ta`sir va ma`noga erishar edilar.

E`tirof etish kerak-ki, an`anaviy bunnigi, gulligi, ishkami qo`shiqchiligi tovushlarning shakllanishi bilan farq qiladi. Uning ijrosiga kelganda esa, u qo`shiqchining zehni va musiqiy madaniyatiga bog`liq. Shuni aytib o`tish kerakki, O`rta Osiyoda o`rta asrlardan beri rivojlanib kelayotgan musiqa nazariyasiga nota yozuvlari noma`lum edi. O`zbek musiqa madaniyati xalq, hamda professional musiqa asarlarini yetkazib berishning og`zaki usulda rivojlanishi davom etdi.

O`zbek milliy akademik maktabiga 20 – yillarda asos solindi. O`rta davr musiqa hayotining boyligi, yangiliklari va jamiyatdagi voqealar ahamiyati bilan farq qilar edi. Shahar va qishloqlarda konsert faoliyati keng tarqaldi. Konsertlarda duxovoy va simfonik orkestr qo`shiqchilari, o`zbek milliy ansambllari ishtirok etar edi.

O`zbek xalq musiqa madaniyatining rivojlanishida respublika qo`shiqchilarining konsertlari bilan bir qatorda, vokal san`ati ustalari: S.Sobirov (tenor), A.Nejdanova (soprano), G.Primov (bas), P.Pesevich (bas), A.Bragen (bariton), V.Afromeeva (lirik koloroturali soprano), M.Ferrari (lirik koloroturali soprano), kabilar gastrollari ham katta ahamiyatga ega.

O`zbek xalq qo`shiqchilari. O`zbek xalq professional qo`shiqchilari orasida Xo`ja Abdulaziz Rasulov alohida o`ringa ega. Uning ijrosida Buxoro Toshkent, Farg`ona Xorazm xalq

qo`shiqchilik san`atining yaxshi qirralari aks ettirilgan edi. Rasulov chiroyli tembrdagi tenor edi. Qo`shiqchi o`z ovozi boshqarishni bilar edi va o`zining san`ati bilan tinglovchilarga katta ta`sir ko`rsatar edi. Bunga uning yuqori professionallik darajasi, o`zining vokal imkoniyatlari va repertuarlariga jiddiy qarashi, o`ziga hos musiqiy emotsionalligi va erkin improvizatsiyasi sababdir.

Shashmaqom ijrochiligining qonunga aylanib qolgan bachkana an`analariga amal qilmay (olib) musiqani amal qilib olib, xalq xirgiyilarini chambarchas bog`langan holda ovoz va cholg`u kuylari uyg`unlashuviga erishdi.

Vokalist sifatida uning mashhurligi juda katta edi. Ijro etgan asarlarining soniga ko`ra Xo`ja Abdulaziz Rasulovga teng keladigani yo`q edi. (200 dan ortiq vokal va intrumental p`yesalar ijro etgan).

Repertuarining asosini Shashmaqomning qismlari va katta ashulalar tashkil qilar edi. Maqomlardan ko`proq “Ushshoq”, “Taron”, “Panjgoh”, “Iroq”, “Navo”, katta ashulalardan esa, “Abdurahmon - begi”, “Bozurgoni”, “Bebokcha” larni maromiga yetkazib ijro etar edi.

Yangi oqim xalq vokal san`atining asoschisi sifatida Xamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik qarashlari.

Xamza Hakimzoda Niyoziyning serqirra iste`dodi o`zbek ijtimoiy xayotining barcha jabhalarida nomoyon bo`ldi. Shoir, jurnalist, dramaturg, rejissiyor, kompazitor va pedagog Xamza o`zbek adabiyoti va san`atining musiqiy ijodiyoti, uning faoliyatining asosiy tomonlaridan biridir. Madrasada tahsil olayotgan davridayoq u xalq ijodi – falklorlaridan namunalar yozib bordi, hamda xalq professional klassik musiqasini o`zlashtirib bordi.

Xamzaning ijodi-uning pedagog – vokalistlik faoliyati o`zbek musiqiy san`atining rivojlanishida ko`zga ko`rinarli ta`sir ko`rsatdi.

O`zbek xalq milliy koloriti, shakli va uslubini saqlab qolgan holda unga yangi sotsiologik mazmun kiritdi, uni barcha tomondan qabul qilingan kuylash uslubiga yaqinlashtirdi.

Xamza birinchi pedagog – vokalist. Uning vokal metodik qarashlari odatdagi an`anaviy qarashlardan farq qiladi.

Turkistonda professional qo`shiqchilik san`ati o`qitilishidan avval XX asrgacha qadimiy an`analar avloddan-avlodga o`tib kelar edi. Metodik ko`rinish yagona usulda tuzilar edi: pastki ovozdan ko`rinish yagona usulda tuzilar edi. Pastki ovozdan yuqoriga, so`ngra o`rtacha kulminatsiyaga, undan yuqori kulminatsiyaga, so`ng yana past registrga. Pastki notadan boshlash ovozni tabiiy holda yetkazib berishni qiyinlashtirib, ovoz apparati muskullarining zo`riqishiga olib kelar edi va bu esa o`z navbatida ovoz tembriga ta`sir qilar edi.

O`zining musiqiy asarlarida Xamza an`anaviy uslublardan voz kechdi va musiqiy qatorni o`rta registrda ifodalay boshladi. Uning vokal – metodik uslublari bilan ilg`or milliy vokal

maktablari uslublari o`rtasida katta umumiylik bor. O`quvchilar bilan shug`ullanishda Xamza ovozning yengilligiga, talaffuzning tozaligi va qo`shiqning mazmunlilikiga erishdi. Yana bir juda ahamiyatli yangilik – bu qo`shiqchining professional pozasi, ya`ni qo`shiqchining ijro davomida gavdasini tutishi. Ma`lumki, o`tirib qo`shiq aytish san`ati O`rta Osiyoda keng tarqalgan edi. Balki buning o`z ma`nosi bordir.

Maqom va lirik sevgi qo`shiqlarini kuylashda gavdani bunday tutish, fikrni bir joyga joylash, xotirjamlik, falsafiy o`zligini anglash dunyosini his qilish sharoitini yaratish imkonini beradi.

Xamzaning vokal asarlari ijrochining oldiga yangi talablarni qo`ydi. O`quvchilar bilan bo`lgan mashg`ulotlarda u ovoz apparatining tiqilish va qo`shiq tonining notog`ri qo`yilishidagi xatolarga yo`l qo`ymaydi. Xamzaning vokal asarlari ovozning imkoniyatlarini hisobga olgan holda yozilgan va o`zbek qo`shiqchilarini tarbiyalashda ajoyib didaktik material bo`lib xizmat qildi. Tilni yaxshi bilgan Xamza o`zbek tili fonetikasini vokal-estetik talablarga xizmat qildiradi. U nafaqat ma`nosi, balki o`ylangan obrazga unlilar soni va xarflarning birikishi mos keladigan so`zlarni tanlab, qo`shiqchiga matnni to`g`ri talaffuz qilish imkonini yaratib beradi.

I. 2. O‘quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasining nazariy ahamiyati.

O‘qituvchi o‘quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanish lozim. Ashula aytishning o‘ziga hos tomonlari bilan bog‘liq o‘z qiyinchiliklari ham yo‘q emas. Xonandaning ovozi o‘ziga hos “musiqa asbobi” hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganga ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma – ketligini aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilish kerak.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, ashula aytish uchun o‘quvchiga avvalo tabiiy musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira va aniq ifodalay bilish qobiliyati bo‘lishi zarur. O‘quv yilining boshida bolalardagi ana shu fazilatlardan kelib chiqib, alohida reja tuziladi. Yakka qo‘shiq o‘rgatishda faqat yaxshi va a’lo darajada musiqiy qobiliyat hamda sog‘lom ovozga ega bo‘lgan o‘quvchilargina tanlab olinadi. Biroq, tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha musiqiy qobiliyatga ega bo‘lganlar ham uslubiy jihatdan to‘g‘ri va muntazam olib boriladigan mashg‘ulotlar davomida musiqiy qobiliyatga ega bo‘lganlar ham uslubiy musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi.

Eshitish, xotira hususiyatlari rivojlanadi va aniq ifoda etish o‘zlashtiriladi. Oldindan tayyorlangan kuy namunalari musiqiy parchalar vositasida har bir o‘quvchining musiqiy va ashula aytish qobiliyatini sinab ko‘rish mumkin. (La, la, la, na, na,na yoki pam,pam,pam).
Masalan:

O‘quvchi usulni ilg‘ab olish darajasini esa, murakkabligi jihatidan turlicha bo‘lgan usullar bilan sinab ko‘riladi. Masalan: o‘qituvchi tomonidan ovozga yoki cholg‘uda chalingan ohangning usulini kaftlarini bir – biriga urish yoki qalamni stolga urish bilan bajarishi mumkin. Agar stolga usul to‘g‘ri takrorlansa, so‘ng murakkabroq usul orqali sinab ko‘rish kerak.

O‘quvchilarning musiqiy xotirasi kuylardan parchalarni ketma-ket takrorlash vositasida tekshiriladi. Kuylashning qanchalik qiyin yoki oson bo‘lishi uning yoshiga bog‘liq. O‘rta va katta yoshdagi bolalar uchun esa, bir muncha murakkab kuylar tanlanadi. Shundan so‘ng, o‘quvchining ovoz imkoniyatlarini tekshirishga o‘tish mumkin.

Ovoz diapazoni ayrim qo‘shiqlar, mashqlarni turlicha, ya’ni yuqori va quyi pardalarda kuylatib tekshiriladi, ovoz diapazonining yuqori va quyi tovush nuqtalari aniqlanadi. Bunda avvalo o‘quvchining ashula ayta olish qobiliyati aniqlanadi. Agar diapazonda quyi va yuqori

tovushlar bo‘lib, o‘rta tovushga ega bo‘lsa, bunday ovozni alt (past ovoz) deb belgilansa, maqsadga muvofiq.

Diapazoni kuchli ovozning qaysi partiyaga mansubligi quyidagicha aniqlanadi. Agarda diapazonda quyi tovushlar kuchli bo‘lsa, alt yuqori tovushlar kuchli bo‘lsa, diskant (yuqori ovoz) deb belgilanadi.

Yakkaxon qo‘shiqchi ijrosining ovozinining tsifatiga, ijrochilik mahoratiga bog‘liq. O‘smirlarning (11-18 yosh) organizmda ularning butun hayotiy faoliyatlariga ta‘sir etuvchi katta anatomik-fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning ovoz apparatida ham murakkab jarayonlar yuz beradi. Ovoz apparatining shakli bola organizmidagi alohida a‘zolarining o‘shishi bilan bog‘liq. Ayniqsa, bunday hol o‘g‘il bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning ovoz bog‘lamlari uzunasiga kengayadi, eniga esa, odatda o‘zgarmaydi. Bo‘g‘iz tez o‘sadi. Ayni paytda hiqildoq ostining o‘smay qolish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Bunday hollarning paydo bo‘lishi, nafas olish orgnolari va bo‘g‘iz faoliyatining buzilishi bilan bog‘liqdir.

Shunday hodisalarni qiz bolalarda ham kuzatish mumkin. Lekin, o‘g‘il bolalarda bo‘lganidek aniq shaklda emas. Mutatsiya davrining xarakterli tomonlaridan hisoblangan bo‘g‘izning tez o‘shishi, ovoz rivojlanishidagi birmuncha murakkab va havfli payt hisoblanadi. Ovoz apparati 15 yoshdan 18 yoshgacha sekinlik bilan shakllanib boradi. 19 yoshda uning rivojlanishi asosan to‘htaydi. 11 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan butun davrni 3 ta bosqichga ajratish mumkin.

1. 11-13 yosh balog‘atgayerish arafasi ovoz apparatida hech qanday katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi.
2. 13-15 yosh mutatsiya davri (balog‘at yoshining boshlanishi)
3. 15-18 yosh balog‘atga yetish bo‘g‘iz va butun ovoz apparati rivojlangan va shakllangan bosqich.

Bu bosqichlarning har biri o‘ziga hors hususiyatlarga ega bo‘lib, ularni hor rahbari yaxshi bilishi lozim. Bolalar organizmi favqulotda xilma-xil rivojlanadi. Mutatsiya davrida u yoki bu alomatlarni paydo bo‘lish mudatlari ham turlicha. Shu tufayli xor jamoasida xar bir bolaga alohida munosabatda bo‘lish lozim. Mutatsiya davrining yaqinlashib qolganini aniqlash juda qiyin. Odamda mutatsiya arafasida bolaning ovozi sezilarli ravishda tiniqlashadi, kuchga to‘ladi. Biroq, bola tez orada avval osonlik bilan ijro etgan diapazonning yuqori tovushlarini endilikda zo‘riqish bilan aytadigan bo‘lib qoladi. Ular tez-tez ohangni buzib to‘g‘ri ashula ayta boshlaydi. Ovoz birxilligi, yoqimlili, jarangdorligi yo‘qoladi. Ovoz diapazonida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Qizlarda bir-ikki pardaga pasayadi. O‘g‘il bolalarda esa, bir oktava va undan ko‘p darajada pasayadi. Bo‘g‘izning yallig‘lanishi shilliq moddasining ko‘payishi nafas olish funksiyasining buzilishi, ba‘zan ovozning yo‘qolishiga olib keladi. Bu ayniqsa, o‘g‘il bolalar

uchun hos bo'lsada, lekin qiz bolalarda ham kam bo'lsada uchrab turadi. Mutatsiya davri o'g'il bolalarda 6-9 oydan, 2-3 yilgacha davom etadi. Qiz bolalarda uzoq vaqt davom etmasada, 15-16 yoshda takrorlanishi, yoki shu yoshda birinchi marta boshlanishi mumkin.

Mutatsiya arafasida muntazam ashula aytish bilan shug'ullanish ovozning bir muncha silliq, bir muncha tekis o'rganishiga va hatto mutatsiya davrida ham ashula aytaverish imkonini beradi. Mobodo mutatsiya o'tkir holatda nomoyon bo'lsa ma'lum davrgacha mashg'ulotni to'htatib turishga to'g'ri keladi. Mutatsiya davrida vrach – foniatorga murojaat qilish juda muhim.

Bu davrda vokal mashg'ulotlarining vaqtini qisqartirib, baland tovushda kuylatishni bir oz kamaytirishga to'g'ri keladi. Toliqishning birinchi alomatlari ko'zga tashlanganda mashg'ulotni to'htatish kerak bo'ladi.

Bularni musiqa o'qituvchisi bilishi va bolalarga ham tayinlashi zarur. Mobodo, mutatsiya davrida ashula aytish butunlay to'htatib qo'yilsa, tovush chiqaruvchi organlarda yo'lga qo'yilgan kordenatsiyalarning yo'qolishiga olib keladi. Aksincha, muntazam ravishda chegaralangan vaqtda ashula aytish davom ettirilsa, anashu kordenatsiyalar saqlanib qoladi va mustahkamlanadi.

O'g'il bolalar mutatsiya davrida ashula aytish bilan muntazam shug'ullanib borsalar, mutatsiya silliq va sezilmay o'tishi mumkin. Ular ovozini yetarli darajada boshqarib, o'zlariga qulay tovushlarni tanlab kuylashlari mumkin. Odamda bunday vaqtda diskant alt ovozigacha yozilgan qo'shiqlarni kuylash maqsadga muvofiq keladi. Muntazam ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida ovoz bog'lamlarining o'sishi, ntekis bo'lsada, diapazonning kengaytirishda ehtiyot bo'lish lozim.

O'smir yoshdagi bolalarning diapazoni: soprano, diskantlar, birinchi oktavadagi Do-Re notalaridan, ikkinchi oktavaning Fa-Sol tessiturasida baland, agar past tovushlar ko'p uchrasa, asarning tessiturasida past hisoblanadi. Asarning past yoki baland tessiturasida ijro etish sun'iy aytishga olib keladi, bola ovozigacha salbiy etadi. Ana shuning uchun ham o'qituvchi asar tanlaganda, tessitura qulayliklarini nazarda tutmog'i kerak. O'smir yoshda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham tovush chiqarish mexanizmining farqi aniq bilinadi. Qiz bolalarda diapazonning asosiy qismini markaziy registr tashkil etadi. Shu registr tabiatan aralash tovush chiqarishga moslashgan. Sof ko'krak va yuqori sado faqat chetki notalardagina tinglanadi. O'g'il bolalarda esa, aralash sado sun'iy yo'l bilan chiqariladi. Shu tufayli ham o'g'il bolalar cheklangan diapazonga ega bo'lishadi. Chunki, ashula aytish paytida ko'proq ko'krak registrdan foydalanishadi. Asosiy va aralash registrdan tovush chiqarishni o'rganib olishgandan keyingina ular o'z diapazonlarini kengaytiradilar.

Qiz bola ovozi tabiatan markaziy (oʻrta) registrga ega boʻladi. Bunday hol ovoz diapazonining barcha notalarini tekis chiqishiga imkon beradi.

Oʻgʻil bolalarda bunday registrda kuylash birmuncha murakkabdir. Bu borada oʻziga hos turli ovoz mashqlari bilan oʻgʻil bolalarda ham shu zaylda koʻnikma hosil qilish mumkin.

Bolalar ovozini tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu ovozning mayin chiqishiga registrdan – registrga oʻtishni osonlashtirishga, diapazonining barcha notalarida bir tekisda kuylashga imkon beradi.

Yuqori ovozli qiz bolalarda past registrdan – oʻrta registrga oʻtish notasi 1-oktavaning Mi-fa-fa diyez notalari hisoblanadi. Oʻrta registrdan – bosh registrga oʻtish notasi esa, 2 – oktavaning fa-fa diyez pardalari hisoblanadi. Past ovozlarda esa, oʻtish notalari 1-oktavaning pardalari oʻrta registrdan bosh registrga oʻtish notalari 2- oktavaning Do-Re pardalari hisoblanadi. Oʻgʻil bolalarda 2 ta registr boʻlganligi tufayli bosh sadolariga olib boruvchi tovushlar oʻtish notalari hisoblanadi. Masalan: disskantlarda 2-oktavaning Mi-fa-fa diyez pardalari altlarda esa, 2-oktavaning Do-re pardalari hisoblanadi.

Oʻsmir yoshdagi bolalarda koʻkrak registridan oʻz oʻrnida foydalanish lozimligini oʻqituvchi yaxshi bilishi kerak. Chunki, koʻkrak registriga kiradigan ovozdan ortiqcha foydalanilganda bola ovozini baqiroq qilib qoʻyishi mumkin. Ovoz kuchli diapazon bilan bevosita aloqada boʻladi. Diapazonning turli qismlaridan maʼlum bir ovoz kuchligini talab qilish mumkin. Aks holda ovozga qattiq zarar yetishi mumkin.

Bola ovozining kuchli tiklanish davrida baland boʻlmaydi. Zero, buning unchalik ahamiyati ham yoʻq. Bola ovozining goʻzalligi, uning jarangdorligi, yengilligi soddaligida. Ovozning tabiiy kuchi yordamida jarangdorlikda sadolarning jozibadorligida, yoqimlilikiga erisha borib, bu bilan oʻqituvchi bola ovozining rivojlanishini taʼminlaydi. Bola ovozining eng baland sadosiga oʻrtacha kuch bilan erishadi.

Ovoz jarangdorligi koʻp hollarda tembrga (ovoz tusi va chiroyliligiga) bogʻliq boʻladi.

Oʻsmir yoshda olib boriladigan muntazam va toʻgʻri ashula aytish jarayonida tembr oʻsha ovozning oʻzigagina hos boʻlgan sifatlarga ega boʻlib boradi.

Tembrni toʻgʻri tarbiyalash, ayni paytda bolalarni diapazonining turli qismlarida unli harflarni toʻgʻri va jarangdor ijro etishga oʻrgatish demakdir.

Tembr ovozining oʻziga hos bebaho hususiyati uni tarbiyalash va shakllantirish. Tembr sifatiga ikki yoʻl bilan taʼsir etiladi.

Birinchisi: registrni (koʻkrak va bosh registr)larini almashtira borib va ovoz pardalarini oʻzgartira borish orqali;

Ikkinchisi: ovozni kuchaytiruvchi boʻshliq (hiqildoq, ogʻiz) bilan taʼsir etish mumkin;

II BOB. Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga vocal ko`nikmalarini shakllantirish uslublari.

II.1. Musiqa o`qituvchisida vokal ko`nikmalarini shakllantirishning ba`zi muammolari haqida.

Buyuk shoirimiz Cho`lpon ta`biri bilan aytganda, “Adabiyot yashasa – millat yashaydi” – deydi. Hech bir xalq she`riyatini esa, qo`shiqsiz to`liq tasavvur qilib bo`lmaydi. Qo`shiq xalqning tili singari muqaddas bo`lib, o`z ohangi yo`q millatni ham tasavvur qilib bo`lmaydi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov millatimizning faxr va g`ururini namoyon etuvchi milliy an`analarida fikr yuritar ekan, musiqaning qudratli kuchiga alohida to`xtalib o`tadi: “Mustaqillik yillarida, - deb yozadi, - ulug` bobolarimizning ana shunday an`analarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san`atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o`rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko`plab ko`rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam ravishda o`tkazib kelinmoqda.... Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san`ati navqiron avlodimizning yuksak madaniyat ruhida kamol topishida, boshqa san`at turlariga qaraganda ko`proq va kuchliroq ta`sir ko`rsatmoqda”.

Musiqiy tarbiyaning muhim vazifalarini amalga oshirishda, yosh avlodni yuksak musiqiy-estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijro mahoratini yuzaga keltirishda musiqa o`qituvchisi alohida ahamiyat kasb etuvchi shahs hisoblanadi.

O`qituvchi zimmasiga yuklanadigan bunday ma`suliyatni hisobga olgan holda bo`lajak musiqa o`qituvchilari, bakalavr talabalarining professional o`quvini takomillashtirib borish, hususan, ularning kuylash mahoratini o`stirib borish hayotiy zarurat ekanligini anglab olish muhimdir.

“Musiqa madaniyati” darslarida o`quvchilarning ko`rsatadigan faoliyat turlari ichida qo`shiq o`rganish va uni ma`yoriga yetkazib kuylash, ularga alohida ematsional ko`tarinkilik va zavq bag`ishlaydi. Zero, D.B.Kabalevskiyning ta`biriga ko`ra “Har bir sinf – bu xor!, - bu ideal” hisoblanadi. Chunki, xorda kuylash jarayonida barcha o`quvchilar o`z ovozini, kuylash qobiliyatini, hayotga bo`lgan o`z munosabatini oshkora namoyon qila oladi.

Oliy musiqiy ta`lim dargohida bo`lajak bakalvrlarni kasbga tayyorlar ekan, ularning kuylashga taaluqli barcha malakalarini shakllantirib borishga erishish zarur. Qo`shiq kuylashga o`rgatuvchi yakka xonanda, xor rahbari talabalarning har birini ertaga izlab o`quvchilarga vokal sirlarini o`rgatuvchi ustoz sifatida ta savvur qilish, uning kuylash san`atining eng muhim sirlari bilan qurollantirishlari lozim.

Bo`lajak musiqa o`qituvchisining ovozi qanday bo`lishi kerak?, - degan savol tug`ilishi o`z – o`zidan tabiiydir.

O`qituvchining ovozigacha qo`yiladigan birinchi navbatdagi talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. O`qituvchi faqat tehnikasini egallabgina qolmay, uning ovozi yoqimtoy va o`quvchilarni o`ziga tortadigan bo`lishi.
2. O`qituvchi biror cholg`u sozida (fortepiano, rubob, dutor va hokazo) o`z o`ziga jo`r bo`lib kuylay olishi.
3. Cholg`u sozisiz ham chiroyli, yoqimli temberda kuylay olish.
4. O`z ovoz deapazonining barcha registrlarida (o`rta, past va yuqori) birday o`z ovoz temberini yo`qotmasdan kuylay olishi.
5. Hirgoyi qilib yoki faltset ovozda kuylay olishi.
6. Kuylaganda intervallarni to`g`ri talaffuz qilib kuylay olishi.
7. Vokal asarlarini mahorat bilan kuylay olishi.
8. Turli dinamik turlarda kuylay olish mahoratiga ega bo`lishi.
9. O`quvchilar bilan muloqatda o`z ovoz tonini to`g`ri tanlay olishi lozim.

Yuqorida sanab o`tilgan hususiyatlar, musiqa o`qituvchisining kuylash tehnikasini qay darajada mukammal egallaganligini ko`rsatadi. Xilma-xil vokal malakalariga musiqa o`qituvchisi, birinchi navbatda professional o`qituvchilardan ta`lim olish jarayonida erishadilar. Hususan, vokal, mumtoz qo`shiqchilik, xor va xalq qo`shiqchiligi darslaridan puxta bilim olgan talabalar soatlab cho`chmasdan kuylash malakalarini ya`ni chidamlilikni ham o`rganib boradilar.

Ko`p yillar mobaynida olib borgan kuzatuvlarimiz, hususan Nizomiy nomidagi TDPU “San`at” fakulteti “Musiqa” yo`nalishi talabalarini vokal va xor fanlari bo`yicha bitiruv atestatsiya komissiyasiga nazoratiga havola qilish olib borgan ishlarimiz natijasida shunday fikrga keldikki:

- birinchidan, talabalarning vokal va xor qo`shiqchiligi bo`yicha olgan bilimlari hali professional darajaga yetib bormagan va buning sabablaridan biri bu fanlarga ajratilgan dars soatlarining o`ta darajada kam ekanligida;
- talabalarning olgan bilimlari faqat dars jarayonida egallagan bilimlar, orttirilgan ko`nikma va malakalar bilan cheklanib qolganligida. Vokal tehnikasini egallash uchun, belgilangan mustaqil ishlardan talabalar unumli foydalanayotganligida;
- kuylash tehnikasini egallashga, talabalarda bo`lgan intilishning sustligi;

Ayni paytda shuni alohida ta`kidlash lozimki, oliy musiqa o`quv yurtlarida talabalarga vokal tehnikasini egallash bo`yicha beriladigan professional bilim va malakalar qanchalik yaxshi

yo'lga qo'yilmasin, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun buning o'zi yetarli emas. U tizimli ravishda, o'z ustida ishlab borishi kerak. Professional darajaga erishishi va uni saqlab qolishi juda qiyin bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida kuylash ko'nikmalarini egallash bo'yicha olib

boriladigan barcha ishlar bu musiqa o'qituvchisi uchun o'ziga xos fundament, poydevor bo'lib, u yosh mutaxassisning professional darajadagi ashulachi bo'lishi uchun o'ziga xos yo'nalish vazifasini o'taydi xolos.

Vokal mutaxassislari talabalarda professionallik malakalarini rivojlanishida, uch davr mavjudligini ta'kidlashadi:

Birinchi davr-to'g'ri ovoz hosil qilish malakalarining dastlabki shakllanish davri bo'lib, talaba ovoz hosil qilishni endigina bilib olgan davri hisoblanadi;

Ikkinchi davr – kuylashning hosil bo'lgan to'g'ri yo'lini saqlab qolish, uni ovoz diapazonining barcha registrlariga joriy etish, ayrim yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni to'g'rilab borish va egallagan dastlabki malakani mustahkamlash;

Uchunchi davr – ovoz hosil qilishning endigina shakllangan malakalarini avtomat darajasiga yetkazish, kamchiliklarni tamoman bartaraf qilish, ovoz hosil qilish apparatlarini ishga solishning xilma-xil variantlarini qo'llay olishga o'rgatish;

Mumtoz qo'shiqchilik bilan shug'ullanayotgan talabalar uchun, ayniqsa uchunchi davrda qilinadigan ishlar ko'payadi. Ashulachilikka xos milliy bezaklarni qo'llay olish: nola, qochirim, ovozni yoyish, tebrantirish, tovlantirish, salmoqlab me'yoriga yetkazish kabi murakkab bezaklardan foydalanishning yangi-yangi variantlaridan foydalanish yo'llarini izlash yo'lidagi yangicha xarakterlar, xonandaning o'z mustaqil uslubini yaratishga ham olib kelishi mumkin.

O'z ustida ishlashni to'xtatgan qo'shiqchi o'sishdan ham to'xtaydi. Vokal yoki mumtoz ashulachining o'zi ham, o'z ovozini tarbiyalash ustida tinimsiz ish olib borishi talab etiladi.

Shu o'rinda mashhur ashulachi Shampinning qo'shiq kuyligiga hos muhim bashoratini eslatib o'tish o'rinlidir. Uning fikricha, har bir ashulachi kuylayotganda o'z ichiga ikki kishiga bo'lingandek his qilishi lozim. Birinchi ashulachi sifatida u professional darajada kuylasa, ikkinchi ashulachi sifatida u o'z ijrosini mumtazam nazorat qilib borishi, o'zining yutuq va kamchiliklarini belgilab, uni tuzatish yo'llarini o'ylab borishi lozim. Bu esa, kuylovchiga yanada kattaroq ma'suliyat yuklaydi.

Vokal yoki mumtoz ashulachi, o'qituvchi bo'lajak musiqa bakalavrlarini professional tayyorlash, hamda o'z ashulachilik mahoratlarini oshirib borishlari uchun bir qator muhim tavsiyalarga amal qilishlari lozim bo'ladi. Bulardan eng muhim bo'lgan elementlar haqida to'xtalamiz.

Ovozni mashqni qildirish. Har bir mashgʻulot oldidan oʻqituvchining oʻzi mustaqil ravishda bir nechta zarur mashqlarni bajarib, 10-15 minut ichida oʻz ovozinini sozlab olishi tavsiya qilinadi. Bunday mashqlar organizmdagi passiv holatni faollashtirib, tanadagi va asabdagi tormozlanishlarni bartaraf qilib, uni ishchi holatga keltiradi.

Bajariladigan mashqlar 4-5 tadan oshmasligi va turli harakterda boʻlishi lozim. Har bir mashq maʼlum surʼat va ritmgaga asoslangan boʻlishi lozim. Bunday mashqlar ovoz apparatini ilitib olishga imkon berishi barobarida, oʻqituvchining ritm tuygʻusini tartibga soladi, hamda surʼatlarda kuylashga ham moslab beradi. Mashqlar aosan unli tovushlarga asoslangan boʻladi. Ammo, u oʻqituvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda undosh tovushlarning toʻgʻri talaffuz qilinishiga ham qaratilgan boʻlishi mumkin.

Mashqlarni oʻqituvchi oʻz ovozinining oʻrtaliq qismida, yaʼni “primar” zonadan bogʻlashi, soʻngra esa eng pastki va eng yuqori pardalarni ishga solishi lozim.

Ovoz yuritish mashqlarining tizimli va davomli ravishda olib borilishi oʻqituvchini diqqati darsga tayyorlanishi uchun balki ovoz apparatidan professional darajada muntazam foydalanish malakasini shakllantirishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻqituvchining nutq faoliyati. Musiqa oʻqituvchisi uchun eng muhim boʻlgan professional elementlardan biri bu uning burro, ravon va yoqimli sozlay olishi hisoblanadi. Oʻrganilayotgan asarning kompozitori, matn muallifi, asarning gʻoyaviy mazmunini, badiiy obrazlarni soʻzlarda ifodalab berishi, sinf bilan yoki yakkama-yakka muloqotning mazminli va taʼsirchan boʻlishi uchun ham oʻqituvchining nutq madaniyati yuksak darajada rivojlangan boʻlishi talab etiladi.

Nutqning oʻziga xos kishini oʻziga rom qila olish, sehrlay olish, fikrlarni oʻziga jalb qila olish, ularni qiziqтира olish, emotsional his-hayajonini uygʻota olish kabi sirli hususiyatlari mavjud. Ayniqsa, oʻqituvchining nutqi uning kuylay olish mahoratiga mos boʻlishi uning katta yutugʻi hisoblanadi.

Sinfda asab va tana muskullarining erkin va yengil harakatlanishi artikulyatsion apparatning (til, yumshoq tanglay, esnash holati, tomoq muskullari, pastki jagʻning ochilib yopilishidagi erkin harakat, nafasni toʻgʻri olish va rasamatli taqsimlay olish). Faqat qoʻshiq kuylashda emas, balki oʻqituvchining nutqini oʻstirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo kuylashning ham, nutqning ham oʻz oʻrni va oʻziga hos malakalari mavjud.

Oʻqituvchining nutqini shakllantirish boʻyicha oʻquv rejasida mahsus fan qoʻyilmaganligini hisobga olgan holda, har bir musiqa predmetida darsning simfonik hususiyatlaridan kelib chiqqan tarzda nutqni oʻstirib borishga ham alohida vaqt ajratish zarur boʻladi.

Optimal tartibda ishlash. Maʼlumki, oʻqituvchi har bir talaba bilan 45 minutdan ishlash rejalashtirilgan. Dars davomida u kamida 3-4 talaba bilan, baʼzan esa 5-6 ta talaba bilan dars olib

borishi lozim bo`ladi. Shuni hisobga olgan holda o`qituvchi o`z jismoniy imkoniyatini hisobga olib, kuchini to`gri taqsimlay olishga alohida e`tibor berishi lozim bo`ladi.

Ish jarayonida ovoz apparatlariga uzluksiz tarzda kuch berish, uni mantiqan rasamatli tarzda sarflamaslik, ovoz apparatining kuchli toliqishi, tomoqda g`irillash, bo`gilish holatlarining paydo bo`lishiga olib keladi va bu o`z navbatida ovozni eshitib, harakatlantirish, koordinatlarining buzilishiga sabab bo`ladi. Natijada kuylovchi o`z ovozinu nazorat qilib borish hususiyatini yo`qota boradi.

Shuni hisobga olgan holda o`qituvchi optimal tartibni saqlay olishga alohida e`tibor berishi tavsiya etiladi. Optimal tartibga amal qilish quyidagi talablarni o`z ichiga oladi:

1. O`qituvchi darsni o`rtacha kuch sarf qilib olib bera olishiga erishish. (oz kuch sarf qilish, dars jarayonini bo`shashtirib yuboradi va ko`p kuch sarflash o`qituvchini tez toliqtirib qo`yadi).
2. Kuylash jarayonini nutq bilan almashtirib borishi, qisqa va lo`nda qilib tushuntirishga odatlantirish.
3. Ustoz va shogirdning kuylash navbati tez-tez almashinib turishi. Bunda ashulani frazalarga bo`lib kuylatish muhim o`rin tutadi.
4. Ish jarayonida his-hayajon holatlarini bosh, miya yarim sharlarini faoliyati orqali boshqarib bora olishga odatlanishi.
5. Ovoz diapazonining chetki pardalarida kamroq kuylashga amal qilish.
6. Ora – sira pauzalar berish orqali asabni tinchlantirish va ovoz apparatlariga dam berish.
7. Asarlarni musiqa yozuvlari orqali eshittirish.
8. Xilma – xil dinamik turlarda kuylay olish va ovoz hosil qilishning turli variantlaridan foydalanish.

Aktyorlik mahorati. O`qituvchi kuylaganda qo`l, oyoq, yuz, ko`z, gavda, bosh harakatlarining turli variantlaridan ham foydalanishlari lozim.

Kuylanadigan asarning mazmini, karakteri va obrazlar holatidan kelib chiqqan holda o`qituvchi ayrim aktyorlik harakatlaridan ham foydalanib borishi tavsiya etiladi.

Musiqa darslarida qo`shiq kuylash jarayonida ham o`qituvchi asarning mazminiga mos harakatlar qilishni o`qituvchilardan talab etadi va bu darsning yanada qiziqarli va mazmunli o`tishini ta`minlaydi.

Kuylash bo`yicha tahsil olayotgan musiqa o`qituvchilariga sahna madaniyati elementlarinin singdirib borish faqat darsning professional ruhda ko`tarinkilik bilan o`tishga o`z

ta`sirini o`tkazadi va ishni baytda bakalvrlarni kasbga tayyorlashning ham professional darajasini o`stirishga imkon beradi.

Bakalvrlar sahna madaniyatidan ma`lum bilim va ko`nikmalarga bo`lganlari holda ular ham kelajakda o`z o`quvchilariga aktyorlik yo`llarini o`rgatib borishlariga imkon tug`iladi.

Kuylash nazariyasi bo`yicha adabiyotlar talaygina, biroq bu vokal ishi amaliyotiga kam ta`sir etadi: qo`shiqchilik hayoti undan deyarli holi, o`z yo`lida kechadi.

Kuylash tarbiyasi, asosan, pedagoglar, vokal ishi ustalari tajribasini og`zaki bayon etishdan foydalanadi. Qo`shiqchi va uning ovozini tarbiyalash bo`yicha K.S.Stanislavskiy aktyor bilan ishlash metodiga o`xshash qandaydir umumiy metod yaratilmagan, kuylash ustalaridan o`z amaliy faoliyatini nazariy jihatdan chuqur anglashni talab qilish qiyin. Na qoshiqchi, na yozuvchi, na cholg`uchi, na mo`yqalam sohibidan iste`dodi va ulkan tajribasi bo`lsa ham, nazariya yaratishni talab qilib bo`lmaydi.

Shu holat qo`shiqchilar tayyorlashning “yagona metodi” ni ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi.

Biroq bu kabi metodni yaratish vokalchilardan yuksak uyushqoqlik talab etadi. Ashula o`qituvchilari kuylash paytida ovoz apparati ishi haqidagi batafsil tekshirilgan ilmiy ma`lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalarga kelganidagina, “yagona metod” ishlab chiqilishi va vokal amaliyotiga tadbiiq etilishi mumkin.

Kuylashga o`rgatishning foydali, demakki, hamma uchun maqbul metodi eng yaxshi vokal pedagoglari va yetuk ijrochilar tarbiyasi va amaliyotini chuqur, har tomonlama umumlashtirish natijasidagina yaratilishi mumkin. Bunday umumlashtirish fan ma`lumotlariga tayanishi lozim. Bugungi kunda na ilm, na pedagoglarda ajoyib musiqiy eshitish qobiliyati mavjudligi o`quvchiga ovozning yaxshi yo yomon chiqishi ob`ektiv sabablarinin tushunish imkonini bera oladi. Ustiga – ustak pedagog va o`quvchining sub`ektiv tuyg`ulari ko`pincha mos kelmaydi. Ovoz (tovush) bo`lishidagi tuyg`ularni so`z bilan ifodalash esa o`ta mushkul. Zamonaviy vokal termenalogiyasi ham ba`zida o`quvchiga yordam berishdan ko`proq, uni chalg`itadi. Kerakli ovozni chiqishini ko`rsatish chog`ida o`z tuyg`ularini sharhlab, pedagog o`quvchida o`xshash tuyg`ularni uyg`otmoqchi bo`ladi. Biroq, ko`ngildagi tarangni ko`rsatayotib, pedagog, odatda bu tovush (ovoz) o`quvchiga aytayotgan tuyg`u va tehnik usullar natijasida yuzaga kelganiga ishonadi. Aslida esa, tuyg`ular juda aldanchi va individual, o`quvchida ular boshqacha bo`lishi mumkin.

O`z tehnik usullari va tuyg`ularini berish jarayonida pedagog ko`proq og`zaki tushuntiradi. Bu tushuntirishlar ko`pincha obrazli ifodalar bo`lib, kuylovchi ovozining yaxshil tarangligini yoki tangalilikning turli sifatlarini harakterlaydi. O`quvchi esa bu obrazli ifodalarni o`z mushak tuyg`ulari (hislari) ga “tarjima qilishi” ga to`g`ri keladi. Hamma vaqt ham o`quvchi bu “tarjima” ni eplay olmaydi.

Kuylash chog`ida ovoz apparati ishi haqida u qadar to`g`ri bo`lmagan tasavvurga asoslangan ta`lim metodlari ba`zida pedagogning amaliy tajribasi hisobiga yaxshi natija berishini inkor etib bo`lmaydi. Biroq bu ko`rsatkich juda past.

Bu metodlar muvoffaqiyatini, aftidan, ayrim qo`shiqchilarning o`z ustozlari ishlatgan mushak usulidan nusxa olish yoki o`z tasavvuridagi ovozning chiroyli chiqishi idealini intuitiv amalga oshira olish qobiliyati bilan izohlash mumkin. Pedagog ovozning yaxshi jarangidan nusxa olib, qo`shiqchi, hatto kuylash jarayonini noto`g`ri sharhlaganda ham o`zining vokal idealiga mos ovozni ta`minlaydigan mushak ko`nikmalarini hosil qiladi.

Biroq, qo`shiqchi ovozi yaxshi jarangidan va turli vokal usullaridan nusxa olish ovozni kuyishning asl amaliy bazasi bo`lganida, kuylashga o`rgatish bunga ko`p ovoz “braki” ni bermasdi. Qator o`quvchilar borki, taqdir qila oladi, bu metod ularga ancha yordam beradi. Biroq, begona ovoz hosil qilishga yengil moslana olmaydigan, taqlid metodini yomon o`zlashtiradigan qo`shiqchilar ham bor. Nihoyat, vokal mehanizmini chuqur o`rganish va anglashga intiladigan qo`shiqchilar bor. Vaqt o`tib, pedagog bo`lishni istagan bu qo`shiqchilar to`g`ri xonandalik tovush hosil qilishning mohiyatini tushunish va o`zlashtirishga intiladilar. Xonandalik tovush hosil qilish haqidagi ongli, to`g`ri tasavvurga tayangan metod tobora ishonchli va umum uchun tushunarli, eng yaxshi metod bo`ldi, - deb hisoblash mumkin.

Qo`shiqchilikka o`qitishning “yagona metodini” yaratishga kirishishdan oldin barcha xonanda va pedagoglarning kuylash vaqtida ovoz apparati ishi haqidagi to`g`ri tasavvurlar nuqtai-nazaridan o`z amaliyotini anglab yetishlariga erishmoq zarur. Bu ma`lumotlarga tayanib, to`g`ri xonandalik tovush hosil qilishning yagona tamoyillarini umumiy e`tirof etilishini ta`minlash, qo`shiqchilik san`atining zamonaviy skoslarini yaratish mumkin. Shu bilan bir paytda aniq vokal termenalogiyasi ham yaratila boradi. Xonanda tovushlarni o`z tomog`idan, o`z mushaklari va nervlari yordamida oladi. Fonatsiya jarayonida xonandaning o`zi “asbob” ga aylanadi. U kuylash jarayonida ishlatiladigan mushak kompleksining ahamiyati va kuylanishini anglashi va his etishi zarur. Shu sababli kuylashga o`rganayotganlarga “hech handay himiyasiz kuyayver” qabilidagi havaskorona maslahatlar juda zararli. Afsuski, xonanda kuylashni o`rganishidan avval anchagina “himiyaning” o`rganishiga to`g`ri keladi. Xonanda kuylash san`atini spontan yoki o`rganmasdan egallaganiga misollar ham yo`q emas. Biroq, ular juda kam, tabiatan vokal qobiliyati bo`lgan yuzlab va minglab kishilar esa kuylashga o`rganishi mumkin.

Ovozni qo`yish, ya`ni uni professional kuylash uchun moslash va rivojlantirish – kuylovchining eshitish va mushak ko`nikmalarini bir paytda va o`zaro birgalikda tarbiyalash jarayoni.

Xonandalik tovush hosil qilishida ko`plab, jumladan, nafas olish artikulyatsiya, bo`giz va boshqa qator mushaklar qatnashadi. Mushak ishi bilan bog`liq har qanday ixtisoslik, jumladan kuylashni o`rganish jarayonida mushaklar ishi qayta quriladi, aniqlashtiriladi, sayqallanadi.

Ovozni qo`yish ustida ishlayotgan xonanda o`zining mushak sezgilariga keskin e`tiborni ishlab chiqishi va bu e`tibor qaysi guruh mushaklariga birinchi galda qaratilmog`I kerakligini bilib olishi lozim. Uni tovush boshlanishida uning manbaasidan kelayotgan mushak sezgilari, ya`ni uning atakasi va talaffuziga qaratishi kerak. `aynan shular xonanda va pedagog eshitishi doimiy nazorat qiladigan ovoz jarangini bevosita belgilaydi. Boshjqa mushaklar, masalan, diafragma, u yoki bu “nafas olish tiliga” va shakliga parchalangan xonanda tezda qadimdan mavjud bo`lgan ikkinchi darajali standart vokal tasavvurlar to`riga tushib qoladi. Ko`pincha shu tasavvurlarda xonanda adashib ham qoladi.

Eng avvalo, ovozning hosil bo`lish sabablari va nima uchun ovozni biror yoqqa “yuborib”, “yo`naltirib”, “yaqinlashtirib”, “yo`qotib”, “qo`yib”, “o`tkazib” yoki “suyab” bo`lmasligini to`lalgicha oydinlashtirib olish lozim. Ovoz funksiyasining bu barcha ta`riflari yo tarang sifatiga talablar, yo kuylash chog`ida yuzaga keladigan xonandaning ichki o`z sezgilarining faqat obrazli ta`csiflaydi xolos. Ular ushbu talablar amalga oshishi uchun, bu sezgilar hosil bo`lishi uchun zarur bo`lgan ovoz apparatinin ishini ta`riflamaydi.

Ovoz o`pkadan qaytayotgan havo oqimiga qarshi turgan ovoz to`qimalari vibratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Uni joyidan “olib”, “yuborib”, “o`tkazib”, “yaqinlashtirib” yo “uzoqlashtirib” bo`lmaydi. (Albatta, xonandani tanglayiga yaqinlashtirish mumkin, biroq jarang sifatini bu bilan yaxshilab bo`lmaydi). Ovozning “Yaqin” ligi yo “Uzoq” ligi jarangning tashkil etilishi xonanda talaffuzi yordamida hosil qilingan eng yaxshi akustik effektga bog`liq.

O`qituvchining ovoz gigiyenasi va profilaktikaga amal qilishi.

Odatda kuchli va yorqin ovozga ega bo`lgan yoshlar sahnada kuylashni orzu qiladilar va ular professional ashulachilik mahoratini o`stirish yo`llarini qidiradilar.

Musiqqa o`qituvchisi bo`lish uchun esa, alohida vokal iqtidoriga, tabiatan berilgan yorqin, kuchli ovozga ega bo`lishi talab etilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aksariyat talabalar ovoz gigiyenasi va profilaktikaga e`tibor berish zarurligini chuqur anglab yetmaydilar.

Vaholanki, musiqqa o`qituvchisi ham eng avvalo o`zini ijrochi ashulachi sifatida his qilish, ijrochilik mahoratini o`stirib borish ustida timsiz ish olib borishi, ashulachilik repertuarini shakllantirib borishi lozim. Bu esa o`z navbatida undan katta kuch, sa`yi-harakat, entuziazm va katta emotsional kuch sarf etishni talab qiladi.

Musiqqa o`qituvchisi faqat ashulachi-xonanda sifatidagina emas, balki notiq sifatida ham tayyorgarlik ko`rib boradi. Bunday tinimsiz mehnat uni toliqtirishi va uning ovoz apparatlariga o`z salbiy ta`sirini o`tkazishi tabiiy holdir.

Darsga har doim tayyor bo`lish uchun ovoz apparatlarini issiq-sovuqni aralashtirishdan asrash, ovozni haddan tashqari zo`riqtirib kuylashga yo`l qo`ymaslik, ovozni hamda o`zini toliqtirmaslikka alohida e`tibor berib borish, hamda loringolog nazoratidan foydalanib borish tavsiya etiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, o`qituvchining o`z ovoz apparatini avaylab asrash, kuylash malakalarinin shakllantirish ustida tinmay mehnat qilish uning muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatishiga zamin bo`la oladi.

II.2. Maktab o`quvchilarida vokal ko`nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirish yo`llari.

Vokal malakalari musiqa madaniyati darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jamoa bo`lib kuylash mashg`ulotlarida o`quvchilarning diqqat-e`tibori ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o`rgangan qo`shiqlarini ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo`ladi. Qo`shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do`stona jamoaga birlashadi.

Vokal malakalari yordamida qo`shiqni so`z ma`nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o`rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal malakalarini shakllantirib boorish va jamoa bo`lib kuylaganda bunga qat`iy rioya qilish shart. Chunki aynan vokal malakari, vositasi bilangina yoqimli jarangdorlikka erishish mumkin. Vokal malakalari 6 turga bo`linadi.

1. Darsda qo`shiq kuylatish holati;
2. Ashulachilik nafasi;
3. Ovoz hosil qilish;
4. Sozlanish;
5. Ansambl;
6. Talaffuz;

1. Qo`shiq kuylash.

Qo`shiq kuylash holati deganda darsda o`quvchilarning o`tirish va turish holati nazarda tutiladi. O`tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo`l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o`quvchilarga tushintirish va doimo nazorat qilish, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan, to`g`ri turish, o`tirib kuylaganda parta suyanchig`iga suyanmasdan, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko`tarmasdan, bo`yin va boshni to`g`ri ushlash, qo`llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo`yib, engashmasdan o`tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. Nafas olish yo`llari.

Xonanda kuylash vaqtida, ya`ni tovush hosil qilishda nafasi to`g`ri (ishga) yo`lga qo`yishi muhim ro`l o`ynaydi. “Kuylash san`ati – nafasni to`g`ri ishga solish san`atidir” – degan ibora klassik ibora hisoblanadi.

Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma`lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmga va ma`lum bir vaqt oralig`ida sodir bo`ladi. Kuylash vaqtidagi nafas olish tez, qisqa vaqt oralig`ida sodir bo`lib, nafas chiqarish esa, bir qancha vaqtga

cho`ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar harakteriga fiziologik nafasga qaraganda chuqurroq nafas olinadi.

Kuylashda nafas olishning bir qancha turlari mavjud.

1. Pastki qovurg`a kengayuvchi nafas olish;
2. Yelka kengayuvchi nafas olish;
3. Qorin bilan nafas olish;
4. Ko`krak bilan nafas olish;

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg`alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma`quldir. Diafragma- odam organizmida ko`krak va qorin bo`shlig`ini ajratib turadi. Pastki qovurg`alar va diafragma vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi.

Bu qanday sodir bo`ladi?

Xonanda huddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o`pkalar kengayib, pastki qovurg`alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu holda yelka va ko`krakning yuqori qismi o`zgarmaydi. Nafas chiqarish tejamliligi, uzoq muddatli, tekis bo`lishi shart. Nafas chiqarish qorin tarang qobig`ining harakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yo`naladi. Natijada ovoz pardalarini tebranishiga undaydi. Pastki qovurg`alar va diafragma asta –sekin o`z qobig`iga qaytadi.

3. Tovush hosil qilish.

Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz pardalarining harakati natijasida hosil bo`ladi. Tovush havoning yopiq holatdagi ovoz teshigi orqali o`tganda, ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi. Tovushning paydo bo`lish vaqti “Tovush hujumi” deyiladi. Ovoz pardalarining kuchi va harakteriga qarab tovush hujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo`lishi mumkin. Tovushning yumshoq hujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi. Bu holda chiqayotgan havo katta bosim bilan ovoz pardalariga kelib uriladi. Nafas olishdan keyingi hujumda esa, ovoz pardalari nafas chiqarish boshlagandan keyin birikadi. Natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz “X” eshitiladi. Qo`shimcha tovushlar hisobiga tovush o`zining sofligini yo`qotadi.

Ovoz pardalari bo`shashib qoladi. Xonandalar amalda tovush hujumining hamma turlarini bilishi kerak. Lekin, ma`quli “yumshoq tovush hujumi” hisoblanadi.

4. Sozlanish.

Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o`z ovozi unga moslab kuylashi sozlanish degan ma`noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish ma`lum balandlikdagi tovushni aniq intanatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo`lib hisoblanadi. Chunki boshlang`ich sinfdagi vokal ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir

ovozda kuylashda) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish olib boriladi. Ayniqsa, musiqa o`quvi sust rivojlanayotgan bolalarga e`tabor kuchaytiriladi. Ularni o`qituvchi ovoziga cholg`u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovoziga qo`shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya`ni tenglashtirishga da`vat etadi va intanatsion sof sozga erishadi va bir xil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

5. Ansambl.

Ansambl fransuzcha so`z bo`lib, birgalikda degan ma`noni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura san`atlarining qonuniyatlarining birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: O`zbek xalqi cholg`u asboblari, raqs asboblari, vokal ansambl va boshqalar. Ansambl hususiy va umumiy turlarga bo`linadi. Jamoa bo`lib kuylaganda barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib, hammabir kuyda ansambl bo`lib, ikki yoki uch ovozda kuylashi umumiy ansambl deyiladi.

Har bir ovozni alohida –alohida sozi va ansambli hususiy ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg`unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo`yilgan sof unisonga erishish mumkin.

6. Talaffuz.

Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag`) ning faol hamjihatligi, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e`tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda ish olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to`gri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho`zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o`rgatib borish talab etiladi. Bunda og`iz shaklini, tilni harakatlariga, o`zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo`shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o`rgatib borish lozim.

1. Vokal mashqlari.

Mashqlar shoshilmasdan, cho`ziq, bir nafasda ijro etiladi. Oxirigi tovush janjirsimon nafasda cho`zilib turiladi va o`qituvchi ishorasiga qarab to`xtatiladi.

Turli unli tovushlardan iborat bo`g`inlar bir xil va yuqori pozitsiyada jaranglashini kuzatish lozim.

2. Bir tovushdan musiqiy talaffuzning aniqligini yaxshilash uchun mo`ljallangan mashqlar tovushni cho`ziqligi va yengilligini ta`min etadi.

3. Zanjirsimon nafas olish usulini paydo qilish uchun mashqlar. Mashqlar yopiq va turlicha unli tovushlar bilan bajariladi. O`qituvchi o`z istagi bilan tovush kuchini o`zgartirishi mumkin. Masalan:

4. Keng nafasni rivojlantirish mashqlarini yumshatish “i”, “ya” harflari kabi unli larni to`g`ri shakllanishi uchun mashqlar

5. Keng nafasni rivojlantirish uchun mashqlar.

Do major gammasini yuqoridan pastga ijro etish. Asosi “Do” toni yangi tovush bilan almashtirish, o`qituvchiga yuqori pazitsiyadagi ko`nikmalarni o`rgatishda yordam beradi. Yuqori tovush o`z navbatida past tovush singari bir nafasda ijro etilmaydi. Bu o`rinda pastki registrdan tovushni yuqori pazitsiyada musiqiy talaffuz bilan ijro etish kerak. Bunda quyi pardani yuqori pazitsiyada ijro etish bilan ta`minlanadi.

6. Kuylash vaqtida <va> ko`nikmalarining almashuvi xonandalar ravonligi, harakatchanligi va epchilligini uyg`unlashuviga yordam beradi. Sakkiztalik notalarni staccato ko`nikmalari bilan ijro etganda nafas tekis bo`lishi lozim.

7. Keng nafasni rivojlantirish va musiqiy talaffuzining sofligini yaxshilash uchun mashqlar. Ikki qismdan iborat mashq. Ma, Mo, Mi, va Me, Mu, Ma bir nafasda ijro etiladi.

8. Mashqni avvalo sekin tempda ijro etish kerak. Qachonki, ijro mustaqil bo`lganda, tempni asta-sekin tezlatish mumkin. Mashq ijrosi xor ovozining yengil bo`lishiga, musiqiy talaffuzning notalar staccato uslubida ijro etish kerak (bir nafasda).

9. Musiqiy talaffuzni rivojlantirish uchun mashqlar.

10. Kichik sekunda intervalining sofligini yaxshilash uchun mashqlar. Bu mashqni yuqori pazitsiyada bir nafasda ijro etish kerak.

11. Tovush hajmini kengaytirish uchun mashqlar. Bu mashq bir nafasda yuqori holatda ijro etiladi.

12. Artekulyatsiya apparatining mushaklarini bo`shatish va xonanda lablarining faoliyatini oshirish uchun mashqlar.

II.3. Tajriba – sinov ishlarining natijalari va samaradorligini aniqlash

O`zbekiston Respublikamiz mustaqil davlat deb e`lon qilinganidan keyin, ko`p sohalar qatori xalqimizning boy milliy musiqiy tarixini qaytadan tiklash jarayoniga katta e`tibor berilmoqda. Ayniqsa, musiqa san`ati orqali yosh avlodni ma`naviy tarbiyasiga g`amxo`rlik qilish, kamolot sari yetaklash, milliy g`oyani singdirish va tafakkurini kengaytirish borasida xilma-xil ko`rik-tanlovlar o`tkazilmoqda. Bu ko`riklar esa, o`z navbatida yangi-yangi ijrochi xonandalarni kashf etayotir.

Musiqa madaniyati darslarida ovoz qo`yish bo`yicha sifat va samaradorlikni oshirish uchun eng avvalo har bir o`quvchi o`zining mehnat quroli bo`lgan ovoz apparatini yaxshi bilishi va har zumda uni his qilib turishi muhimdir. Vokal malakalarini o`quvchiga singdirish shu jihati bilan ham murakkabdirki, uni faqat ko`rsatib berishning o`zi kifoya qilmaydi. Bunda o`quvchi aytilayotgan fikrlarni faqat tinglab yoki ko`rib emas, balki jismonan o`z tanasi, sezgi organlari, biologok tuzilishi va fiziologok jihatdan sezib idrok qilishi lozimdir.

Shuning uchun ham o`quvchiga ovoz hosil qilishning fiziologik va akustik asoslarini singdirishga alohida e`tibor berish lozimdir. Shuni hisobga olgan holda biz quyida bu borada o`quvchilar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar haqida to`xtalamiz.

O`pka va nafas yo`llari.

Inson o`pkasi ko`krak qafasining ichki tomonida joylashgan bo`lib, u yaproq shklidagi ikki qanotdan iborat. Bu yaproqlarga burundan olingan nafas tarqalib, undagi pufaklar shklidagi kataklarga kirib turadi va undan o`tadigan qon tomirchalarini yangi kislorod ozuqasi bilan yangilab “ta`minlab” turadi. Bunda har kunlik hayotimiz jarayonida olinadigan nafas bilan kuylash uchun olinadigan nafasni farqlay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatdagi nafas olganda uch muhim holatni kuzatish mumkin. Nafas olish, nafasni chiqarish va nafas olishdan oldin to`xtalish, ya`ni nafas olishga tayyorgarlik ko`rishdan iboratdir.

Kuylash uchun nafas olganda havo ko`proq olinadi. Shundan bir qismi o`pkaning faoliyatini ta`minlash uchun sarf qilinsa, qolgan qismi asosan qorin bo`shlig`iga to`planadi. Nafas to`plangandan keyin, uni saqlab turishga alohida e`tibor berish talab etiladi. Uni sarflashni, undan foydalanishni boshlashdan oldin, nafasni to`xtatib, tayanch nuqtasini hosil qilish zarur bo`ladi. Tayanch nuqtasi biror sekund davomidagi to`xtalishga asoslanadi va shundan so`nggina nafasdan foydalanish boshlanadi. O`quvchi aynan shu tayanch nuqtasini his qilmas ekan va nafas zahirasi his qilmas ekan, bu jarayonga ko`nikma hosil qilishi qiyin. Buni his etganda esa, kuylash anchagina oson ko`chadi.

Italiya maktabining asoschilaridan biri bo`lgan F.Lampertining ta`kidlashicha, “Kuylash san`ati bu – nafas olish san`atidir”.

Zero har qanday kuylash asosini nafas tashkil qiladi. Demak, uni ashulachilikning poydevori deyish va balki ashulachilik imoratining devori deyish ham hato boʻlmaydi.

Ashulachilik ahamiyatida nafasning xilma – xil turlari mavjud ekanligini vokal mutaxassislari aniqlab berganlar. Ulardan qaysi biri toʻgʻri ekanligini aniqlab olish oʻquvchining samarali kuylashining taʼminlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Quyida nafas olish turlari haqida qisqacha toʻxtalib oʻtish zarur deb hisoblaymiz.

Koʻkrak qafasida nafas olish.

Bunda nafas asosan koʻkrak qafasida olinadi. “Oʻquvchining belgilaridan biriga tayanmas ekan, u hech qachon toʻgʻri kuylay olmaydi”. Shuning uchun oʻquvchiga birinchi navbatda oʻrgatiladigan narsa kuylash uchun olinadigan nafas zahirasini toʻplay olish va uni sarflashdan oldin olinadigan toʻxtalishni saqlay olishga oʻrgatishdan iborat boʻladi.

Nafas zahirasini toʻplash holatini aniq tasavvur qilish uchun bosh barmoqlarni belga qoʻyib, kaftlarni qorin ustiga qoʻyish lozim boʻladi. Nafas toʻplash holatini mustahkamlash uchun bir necha bor nafas olib zahiraning saqlanish holatini his qilib olish lozim boʻladi. Nafasning toʻplanishi uni kaftlar orqali sezib, uning qay darajada mukammalligini kuzatib, uni sezib borish mumkin boʻladi. Bundan keyingi muhim jarayon nafasni bir meʼyorda sarflashdan iborat boʻladi. Buni ham aynan shu yoʻl bilan mashq qildirish lozim. Nafasni imkon boricha uzoqroq saqlab turishga va buning uchun uni tejimli sarf qilishga odatlanish lozim boʻladi.

Talabalar nafas olish, uni toʻxtatish va undan foydalanish malakalarini qayta takrorlab nafas olayotganda yelkaning koʻtarilish holatini kuzatib boradilar. Bunday nafas olish xonandalarni tezda charchatadi va u tomoshabin uchun ham ogʻir tuyuladi. Shuning uchun koʻkrak tepasiga, toʻgʻrirogʻi yelkani koʻtarib nafas olishga oʻquvchilarni odatlantirmaslik lozim.

Koʻkrak nafasi – bunda nafas asosan oʻpkaning yuqori va oʻrta qismiga olinadi. Nafas olish jarayonida koʻkrak nafasi tez-tez koʻtarilib, tushadi va shuning uchun ham bu xonandaning tezda charchab qolishiga olib keladi. Bunda oʻpkaning pastki keng qismi deyarli ishlatilmaydi va bu ijrochilik imkoniyatini maʼlum darajada chegaralab qoʻyadi. Bunda nafas olishni oʻquvchilarga koʻrsatib, bu haqda maʼlumot berish bilan bir qatorda ulardan amaliyotda foydalanish ijrochilikka toʻla imkon bermasligini ham tushuntirib berish lozim. Bu nafas koʻproq qizlarga va bolalarga xosdir.

Qovurgʻa osti nafasi – asosan erkaklar uchun harakterli boʻlib, bu oʻz navbatida yuqoridagi nafasning ikki turiga qaraganda anchagina kengroq imkonga ega boʻladi. Buning ham imkoniyatda ham qoʻllanilishi haqida oʻquvchilarga maʼlumot berib borish zarur boʻladi.

Diafragmatik nafas – bunda nafas olish koʻlami oʻpkani toʻliq ishga solgan holda kindik atrofida olinadigan nafas hisoblanadi. Bunday nafas olish mahoratli ashulachilarning nafas olish holatiga toʻgʻri keladi. Bunda nafas olish imkoni anchagina kengayadi va nafasning zahirasini

qorin bo`shlig`iga to`plash imkoniyati ham kengayadi. Bunda olingan nafas puxta va salmoqli bo`lib, katta-katta frazali asarlarni ham kuylashga imkon tug`iladi.

Kostoobdominal nafas- ya`ni Costa-qovurg`a va afdomen – qoringa nafas olib kuylash uslubi eng to`g`ri uslub. Bunda pastki qovurg`ani his qilgan holda qorin bo`shlig`iga to`liq nafas olish asosiy rol o`ynaydi. Bu o`ziga hos “qo`shma” nafas hisoblansada, bunda qorin bo`shlig`iga erkin nafas olib kuylash asosiy o`rin tutadi. Kostoobdominal nafas ashulachilik uchun eng qulay bo`lib, unda qorin bo`shlig`iga juda katta nafas zahirasini to`plash imkonini beradi. Bunda barcha nafas organlarining erkin ishtirok etishiga imkon tug`iladi. Kostoobdominal nafas olish holatining to`g`ri ekanligini aniqlashda yuqorida ta`kidlaganimizdek bosh barmoqni bellarga qo`ygan holda kaftlar bilan qorinni ushlab turish va olinayotgan nafasni sezib borish orqali kuzatilib boriladi. Bunday nafas olishda diafragmani ishga solish muhim rol o`ynaydi.

Diafragma – bu pastki qovurg`a oralig`ida hosil bo`ladigan yumaloq joy hisoblanadi. Diafragma o`z ichiga qorin bo`shlig`ida joylashgan jigar, bo`yrak, qorin, ichaklar, qizil o`ngach kabi organlarni oladi.

Nafas olish jarayonida o`quvchilarning e`tiborinin bir nafasga qaratish va ularni shunga ko`niktirib borish lozimki nafasni ortiqcha olib tiqilib qolish holatiga ham yo`l qo`ymaslik lozim. Nafasni shunday olish lozimki, bunda nafasni rostlab, uni ishga solish imkoniga ega bo`lish lozim. Bu aynan ortiqcha ovqat yeb qo`yib, uni hazm qila olmay bo`kib qolgan kishini eslatadi, har ikki holatda ham nafasni boshqarib bera olish imkonini yo`qotmaslik talab etiladi.

Yaxshi nafas olingaidan so`ng ikkinchi muhim vazifani bajarishga kirishiladi, ya`ni nafasning bronxlar, nafas yo`llari orqali inson tomog`ida joylashgan tovush hosil qilish apparatiga yo`naltirib, ovoz hosil qilish jarayoni bopshlanadi. Bu jarayonda tomoqdagi tovush hosil qilish apparati asosiy rol o`ynaydi. Unda ovoz paylari mavjud bo`lib, oddiy nafas olish holatida bu paylar ishlatilmaydi. Ovoz hosil qilish uchun esa, bu ovoz pardalari tarang tortilib, uni nafas yo`llari orqali kelayotgan havo tebratadi va natijada tarang tortilgan ovoz paylarida ovoz hosil bo`ladi.

O`quvchilarga bu haqda ma`lumot berish bilan bir qatorda bu ovoz paylarining nihoyatda nafis ekanligi va uning nozik pardalari kuchliroq zo`riqish orqasida dars ketishi mumkinliginin uqtirib borish zarur bo`ladi.

Shuningdek, ovozning erkin hosil qilinishi uchun tomoqdagi muskullarni zo`riqtirmasdan mayin harakatlanishini ta`minlashga alohida e`tibor berish lozim. Ovozning tomoqda g`irillab hosil bo`lishi, yoki ovoz paylariga kuch berib kuylash xonandani tezda charchatib qo`yishi va bora-bora bu tomoqning ovoz hosil qilish faoliyatini mushkullanishiga olib kelishi mumkinliginin o`quvchilarga har doim uqtirib borish lozim.

Ovoz hosil qilishning muhim jihatidan uchinchi hosil qilingan tovushning tanglayda jaranglab chiqishiga erishishdan iborat bo`lib, nafas orqali ovoz paylarida hosil qilingan tovushning tepa tanglayiga urilib, ovozning jaranglab chiqishiga erishishdan iborat bo`ladi. Ovozning hosil bo`lishida vafas olinib, tayanch nuqtasi hosil qilingandan so`ng, nafasning ovoz paylariga urilib tanglayni jaranglashi bir-biriga bo`g`lanib keladigan uzviy bir jarayon ekanliginin ham o`quvchilarga uqtirib borish bilan birga ularning bir-birladiga bog`liq holda uzviy bog`lanib ishlatilishi bo`yicha ham o`quvchilarning malaka hosil qilishlariga alohida e`tibor berish va muntazam ravishda ish olib borishinin ta`minlab borishga fikr qaratiladi.

Nihoyat, to`rtinchi muhim vazifa bu hosil qilingan ovozga shakl berib, uni turli unlilar yordamida ifodali qilish va undoshlarning talaffuzlari orqali ovozning ifodali bo`lishini ta`miunlashdan iborat. Bunda ovozning og`iz komida aylantirilib, unga salmoq berish til, tish, lab orqali uning diktsiyasiga to`g`ri talkaffuz qilinishiga e`tibor berish muhim rol o`ynaydi. Shu tariqa tovush ifodali talaffuzga, ohang esa, ashulaga aylanadi.

Bu to`rtta muhim vazifalarni amalga oshirish jarayonlari ashulachilikning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Ta`lim samaradorligini oshirish bo`yicha olib borilgan sinov-tajriba ishlarini amalga oshirish uchun biz eng avvalo ikkita guruhni tanlab oldik va ularning bittasini eksperimental sinf sifatida qabul qildik va ikkinchisini nazorat sinfi sifatida tanladik.

Tajriba sinfi o`quvchilari bilan ish olib borib, unda o`quvchilarga bir qator muhim elementlarni singdirish va ma`lum bilim berish ishlari amalga oshirildi. Ikkinchi guruh o`quvchilari esa odatiy tarzda o`qitildi.

Tajriba ishlari Qarshi shahridagi 1-son ixtisoslashgan umumta`lim maktabida olib borildi.

Tajriba sinflariga qo`yilgan talablar asosan quyidagilardan iborat bo`ladi:

1. O`quvchilarni vokal tarixiga oid materiallar bilan qurollantirish;
2. Ularning nota yozuvlaridan erkin foydalana olish texnikasiga ega bo`lishi;
3. Ularning Yevropa uslubida kuylash an`analarini an`analarini egallashi;
4. Xalq an`ana va ashulachilik uslublaridan xabardorligi gulligi, binnigi va ishkami ulardan birida erkin kuylay olishi va o`zbekona ashulachilik an`analariga xos bezaklardan qiynalmay foydalana olishi;
5. Ashulachilik pastanovkasiga xos 4 elementdan xabardorligi va undan amaliyotda foydalana olishi (nafas, tovush hosil bo`lishi, tanglayda jaranglashi va og`iz komida salmoqlanib, talaffuzga aylanishi);

Sinov – tajriba sinfi o`quvchilari bilan oldindan rejalashirilgan ishlarni amalga oshirish bo`yicha tizimli ravishda ish olib borildi.

Tabiiyki, sinov-tajriba sinfi bilan nazorat sinfi o`rtasidagi farqdan biz olib borgan ishlarning qay darajada foydali ekanligini aniqlab olish mumkin bo`lar edi. Shu farqni aniqlash nuqtai-nazaridan o`quvchilar uchun anketa savollari tuzilib, shu asosida bilimlari aniqlanadi.

Anketa savollarini tuzishga biz olingan mavzuning yo`nalishidan kelib chiqqan holda yondoshdik va tuzilgan anketalar quyidagi savollarni o`z ichiga oldi.

O`quvchilarning bilimini aniqlash uchun tuzilgan anketa savollari:

1. Vokal tarixi bo`yicha yozilgan materiallardan xabardormisiz? Misollar keltira olasizmi?
2. Ovoz hosil qiluvchi organlar haqida gapirib bera olasizmi?
3. Vokalistlar, vokal asarlarini nota yozuviga qarab erkin, adashmasdan kuylay olasizmi?
4. O`zbekcha ashulachilik yo`llarini bilasizmi? Ularga hos qochirim notalaridan foydalana olasizmi?
5. Ashulachilik pastanovkasiga hoz elementlarni bilasizmi? Ularga hos 4 element haqida so`zlab bering?
6. Ovoz qoyim mashqlaridan kuylab bera olasizmi?

O`quvchilar uchun tuzilgan bu anketa savollari bilan murojaat qilishda ularning erkin fikr yuritishlari va savollarga yetarlicha to`liq javob berishlariga to`la imkoniyat yaratib berildi.

Anketa savollari faqat eksperimental sinf o`quvchilariga emas, balki nazorat sinfi o`quvchilariga ham to`liq tarqatildi. Talabalarning egallagan bilim va malakalarinin baholashning asosiy mezonini qilib tuzilgan anketa savollariga berilgan javoblar asos qilib olindi.

Anketa savollariga olingan javoblarni tahlil qilish asosida ular egallagan bilim va ko`nikmalarning bir - biridan farqi aniqlab olindi.

Anketa savollari tahlili shuni ko`rsatadiki, sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda yuqori darajadagi ko`rsatkichlar soni anchagina ko`proq bo`lib, nazorat sinfida esa bu raqamlar anchagina past ko`rsatkichga ega bo`ladi.

Nazorat sinfidagi past darajadagi ko`rsatkichlar salmoqli darajada bo`lgani holda, sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda past darajadagi javoblar soni anchagina kam raqamni ko`rsatadi. Ayni paytda sinov tajriba sinfi o`quvchilarining orttirgan bilim va ko`nikmalari ham sezilarli darajada ijobiy natijalar mavjud.

Sinov-tajriba va nazorat sinflaridagi javoblar ko`rsatkichlarining solishtirma jadvali.

	Sinflar	Talabal	Yuqori	O`rtach	Past
--	----------------	----------------	---------------	----------------	-------------

		ar soni	darajada	a darajada	darajada
	Sinov tajriba sinfi	28	19	6	3
	Nazorat sinfi	28	10	5	13
	Farqlar				

XULOSA

Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” kitobida musiqaning tarbiyaviy haqida gapirib: “Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san`atisiz erishib bo`lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan baqiyos o`rin tutib keladi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san`ati navqiron avlodimizning yuksak ma`naviyat ruhida kamol topishida boshqa san`at turlariga qaraganda ko`proq va kuchliroq ta`sir ko`rsatmoqda”, - deb alohida qayd etadilar.

“Ta`lim to`grisida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talabalari darajasida o`quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan keng foydalanish, milliy mafkurani yoshlarda shklantirish, ma`naviy-ma`rifiy sohasidagi ishlarni takomillashtirish, uzluksiz ta`lim muammolarini hal etish masalalariga alohida e`tdor berilmoqda.

Milliy istiqlol sharofati bilan, ma`naviy xayotimizda yosh avlodni axloqiy estetik tarbiyasida o`zgacha e`tdor berilib, yangicha yondoshishni taqozo etib bormoqda. O`sib ulg`yib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda musiqa alohida o`rin tutadi. Bolalarni go`zallik ruhida tarbiyalashda musiqa tarbiyasi haqida buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning kuy, qo`shiq ilhombaxsh, shifobaxsh hamda hayotbaxsh etuvchi ajoyib kush deb ta`kidlasa, Abu Nasr al-Farobiy kuy –qo`shiq kishining ruhiy muvozanatini saqlaydi deb ta`riflab berishgan.

Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda, ularni to`g`ri yo`lga boshlash, san`atga mehr qo`yish, milliy qadriyatlarimizni e`zozlash, Vatanni sevish va uning ravnaqi uchun xizmat qilish har tomonlama yetuk, barkamol, yuksak ma`naviyatli kishilar qilib tarbiyalashda vokal san`atining tutgan o`rni juda muhim.

Yosh avlodni ma`naviyatli va madaniyatli inson qilib tarbiyalash mavzusi ilmi insonlar, bo`lajak allomalarimiz, olimu-fuzalolarimizning diqqat markazida qadim-qadimdan o`rin olib kelgan.

O`rta Osiyoda yashab ijod qilgan ensiklopedik (qomusiy) allomalarimiz al-Farobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, A.Navoiy va ularning davomchilari Zamaxshariy, Avloniy, Ziyo Said va boshqalar ijodida ham axloqiy madaniyat muomalasi yetakchi o`rin egallab kelgan.

Tariqat ilmining, xususan Qur`oni Karimdan keyin ikkinchi o`rinda Xadislarni va mualliflari at-Termiziy, al-Buxoriy bobolarimiz, piru –komil ustozlarimiz Xo`ja Axror Vali, Naqshbandiy, G`ijduvoniy, Urmaviy, Zangi ota, Paxlavon Maxmud va ko`plab olimlar bizning vatandoshlarimiz ekanligi va ular tariqat ilmi va madaniyatining asoschilaridan ekanligi bilan faxrlanish lozim. Ularning nomi yoshlar tarbiyasida namuna va o`rnak, faxr va iftixor manbaai

bo`lib kelmoqda. Ular bizning naslu-nasabimizning naqadar buyuk ekanligidan va yoshlarni aynan shu bobolar an`anasiga sodiq, ularning qutlug` nomlariga munosib farzand bo`lish ruhiyatida, shu yuksak madaniyatni saqlab qolish va uning munosib davomchilari qilib yetishtirish o`qituvchining muqaddas burchidir.

Musiqa madaniyati darslarida qo`shiqlar vositasida o`quvchilarda vokal ko`nikmalarini shakllantirish yo`llarini tadbiiq qilish quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari bo`yicha olib boriladigan ishlarning sifat va samaradorligini oshirishda jahon va o`zbek vokal san`ati tarixiy manbaalarini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Jahon vokal asarlarini gramyozuv va gramplastikalar orqali eshittirish, kelgusida iqtidorli o`quvchilarni oliy o`quv yurtlarida jahon talablari darajasida bilim olishlariga va vokal asarlarini mukammal o`rganishlariga keng imkon beradi.

3. Vokal asarlarini mukammal o`rganishda nota savodxonligini bilish va uningimkoniyatlaridan foydalanish, ularni qo`shiqchilik san`atini puxta o`zlashtirishlarida hal qiluvchi o`rinni egallaydi.

4. O`quvchilarda vokal ko`nikmalarini shakllantirishda ovoz qo`yish mashqlarini mukammal egallash, ularda kuylash malakalari samaradorligini oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

“Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo`lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni tarbiyalashimiz kerak”¹.

Bitiruv malakaviy ishimizda musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarda vokal ko`nikmalarini shakllantirishni yo`lga qo`yish, ishchi materiallar asosida va qanday qilib amalgam oshirilishi ko`rsatib berilgan.

¹I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008 yil. 130-140 betlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma`naviyat” 2008 yil
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida. 16-jild. Toshkent. “O`zbekiston” nashriyoti batbaa ijodiy uyi. 2008 yil
3. Karimov I.A. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” Toshkent. “O`zbekiston” 1999 yil 37- bet
4. Karimov I.A. “O`zbekiston mustaqillikka erishish arafasida” Toshkent “O`zbekiston” 2011 – yil
5. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilishga taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko`tarilish sari. Toshkent “O`zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Hasanboyeva O, Hasanboyev J, Hamidov H “Pedagogika tarixi” Toshkent 2004 – yil
7. Akbarov I “Musiqqa lug`ati” Toshkent “O`qituvchi” 1997- yil
8. Omonullayev D, Ibrohimov O “Umumiy ta`lim maktablari musiqqa dasturi” Toshkent “O`qituvchi” 1992- yil
9. Ismoilova M.E. “Xalq qo`shiq-lari vositasida o`quvchilarning ma`naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish” 1-7 sinf musiqqa madaniyati darslari uchun o`quv metodik qo`llanma. Toshkent. “Istiqlol” nashriyoti 2006 yil
10. Ismoilova M.E. “Vokal o`qitish metodikasi” Oliy va o`rta –maxsus musiqiy ta`lim talabalari uchun o`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent “Musiqqa” nashriyoti 2011 yil
11. Ibrahimon O, Sadirov J “Musiqqa” 7-sinf uchun darslik. G`.G`ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2004 yil
12. Mansurov A, Karimova D “Musiqqa” 5-sinf uchun darslik. Toshkent. G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. Toshkent 2001 yil
13. Begmatov S, Mamirov Q, Mansurov A, Karimova D, Ro`ziyev I. “Musiqqa” 6-sinf uchun darslik G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. Toshkent 2001 yil
14. Rizayeva M “Yosh xonandaning kamoloti”. Toshkent “Cho`lpon” 2003-yil
15. Sharipova M “Musiqqa o`qitish metodikasi”. Toshkent 2008-yil
16. Rahimov H “O`zbekiston Vatanim manim” II kitob. Toshkent “Mehnat” nashriyoti 1997 – yil
17. Norxo`jayev N, Rahimov H “O`zbekiston Vatanim manim” IV kitob. G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti 2000-yil
18. Muhammedova G Xonandalik uslubiyoti asoslari O`z-D-K Toshkent 2007-yil

19. Xolboyeva G. Yakkaxon qo`shiqchilik asoslari. Toshkent. O`zbekiston Davlat san`at Instituti 2008 yil
20. “O`bekiston Vatanim manim” ko`rik-tanloviga bag`ishlangan qo`shiqlar to`plami “Vatan ko`nglimizda” II kitob. Toshkent 1996-yil
21. “O`bekiston Vatanim manim” III kitob. Toshkent “Sharq” nashriyoti matbaa konserni 1999-yil
22. Karimova D “Musiqiy pedagogok mahorat asoslari” Toshkent “Iqtisod moliya” 2008-yil
23. Qodirov G`.K. Boshlang`ich maktabda ko`p ovozli kuylash. Toshkent “O`qituvchi” nashriyoti 1997-yil
24. Hamidova M.A. Xonandalik san`ati. “San`at” jurnali nashriyoti. Toshkent. 2009 yil
25. Fayziyev O “O`quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish” Toshkent 1992-yil

ILOVALAR

Shahodat Rahimova Norgul rovida Bo`ron operasidan 1941 – yil



“Maysaraning ishi” komik operasidan
O`zbekiston SSSR xalq artisti Jamol Nizomxo`jayev (chapdan)

O'zbekiston xalq artisti Muyassar Razzoqova

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI ?

Abdulla Oripov sh'eri

Anor Nazarov musiqasi

Bu asar kuylash uchun qulay yozilgan, asarni ijro etishda honandadan yurtga mexr va ko'tarinki rux talab etiladi. Qo'shiqning matnini to'liq, aniq va buro ijro etish uchun ko'p mehnat talab etiladi. Asarning boshlanishi, ya'ni, mayin kuy oxanglari asarning asosiy harakterini tasvirlab beradi. Asar asosan yakka va bir nechta honandalarning ijrosi uchun mo'ljallangan. Asarning diapazoni "Do" 1chi oktavadan "Fa" - 2 chi oltavagacha. Asar professional ijrochilar uchun yaratilgan.

Andante cantabile ma non troppo

The musical score is written in 4/4 time with a key signature of two flats (B-flat and E-flat). It features a vocal line and a piano accompaniment. The piano part begins with a *mf* dynamic and includes markings for *sim.* (sostenuto) and *Rubato*. The vocal line includes the lyrics: "Men ne - chun se - va - man. — men ne - chun se - va - man. — men ne - chun - se - va - man." and "O' - be - kis - ton - ni?". The piano accompaniment includes a *p* (piano) dynamic marking. The score is presented in a system of six staves, with the vocal line on the top staff and the piano accompaniment on the bottom five staves.

Tup-ro-g'in ko'-zim - ga ay - lab to'- ti -yo ?

Ne-chun Va - tan de-ya, ne-chun Va - tan de-ya , ne -chun Va-tan de-ya

e - ru os - mon - ni,

Mu-qad-das a-tay-man. a - tay-man tan-xo ?

espressivo

mf As - li - da dun - yo - da tan - ho ni - ma bor, Pah - ta o's - may - di - mi

o'z - ga el - da yo ? Yo - ki qu - yo - shi - mi

sev - gim - ga sa - bab ? A - hir qu - yosh - li - ku bu - tun O - si - yo

molto cresc.

First system of musical notation. It consists of three staves: a vocal line (top) with a whole rest, a piano right-hand line (middle) with complex chordal textures, and a piano left-hand line (bottom) with a melodic line.

Second system of musical notation. Similar to the first system, with a vocal line (top) with a whole rest, a piano right-hand line (middle) with complex chordal textures, and a piano left-hand line (bottom) with a melodic line. A *dim.* marking is present at the end of the system.

Third system of musical notation. The vocal line (top) begins with the lyrics "Men ne-chun se-va-man." The piano right-hand line (middle) has a *mf* *espressivo* marking. The piano left-hand line (bottom) continues with a melodic line.

Fourth system of musical notation. The vocal line (top) has the lyrics "Men ne-chun se-va-man, Men ne-chun se-va-man O'z - be - kis - ton - ni ?". The piano right-hand line (middle) has a complex rhythmic accompaniment. The piano left-hand line (bottom) has a simple harmonic accompaniment.

Bog - la - rin jan - nat deb koz - koz e - ta - man.

Ne - chun ar - doq - lar - man, ne - chun ar - doq - lar - man,

Ne - chun ar - doq - lar - man, tup - ro - g' i - ni men, O' - pa - man: * Tup - ro - g' ing

be - ba - ho Va - tan."

cresc. *accel.* *poco a poco cresc.*

As - li - da tup - roq - ni o - dil ta - bi - at Taq - sim ay - la - gan - ku

er yu - zi - ga - teng Ne - chun bu tup - roq deb yig - la - di Fur - qat

Rubato
O Qash - qar tup - ro - g'i qash - shoq - mi - ding sen?! Ho'sh, ne - chun se - va - man,

Men ne - chun se - va - man, Biz ne - chun se - va - miz O'z - be - kis - ton - ni ?

Soli ad lib. Rechitativ Sababini aytgin desalar menga,

a tempo
Shoirona go'zal so'zlardan oldin Men ta'-zim e-ta-man, Men ta'-zim e-ta-man,

Men ta'-zim e-ta-man o-na hal-qim-ga. Men ta'-zim e-ta-man,

ff
Men ta'-zim e-ta-man, Men ta'-zim e-ta-man o-na hal-qim-



Men nechun sevaman O'zbekistonni
 Tuprog'in ko'zimga ay lab to'tiyo ?
 Nechun Vatan deya eru osmonni
 Muqaddas atayman, atayman tanho ?

Aslida dunyoda tanxo nima bor,
 Pahta o'smaydimi o'zga elda yo ?
 Yoki quyoshimi sevgimga sabab ?
 Ahir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni ?
 Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman.
 Nechun ardoqlarman tuprog'ini men,
 O'paman: " Tuprog'ing bebaho Vatan.."

Aslida tuproqni odil tabiat
 Taqsim aylagan-ku er yuziga teng
 Nechun bu tuproq deb yigladi Furqat,
 O Qashqar tuprog'i qashoqmiding sen?!

Ho'sh. nechun sevaman O'zbekistonni ?
 Sababini aytgin desalar menga,
 Shoirona go'zal so'zlardan oldin

Men ta'zim etaman ona halqimga

CHAMANDAGI GULLARMIZ

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Po'lat Mo'min she'ri

Sho'x, quvnoq

1. Biz -lar ko'p - miz dun-yo- da
Suv oq- qan -day dar- yo- da
Biz yur- sak qa- tor- la- shib
Ko'- cha- lar ke- tar to- shib
Qiz- lar- miz
O'- g'il- lar- miz cha-man- da- gi
gul- lar- miz, cha-man- da- gi gul- lar- miz. Qiz- lar- miz
o'- g'il- lar- miz

2. Qo'shiq aysak baralla
Top-toza tonggi palla-
Ovozimizni tinglab
Oftob chiqar yiltillab.

Qizlarmiz, o'g'illarmiz:
Chamandagi gullarmiz.

3. Olamni kuldiraylik,
Shodlikka to'ldiraylik.
Bizlar o'qib, ishlaymiz,
Chin do'stlikni istaymiz

Qizlarmiz, o'g'illarmiz:
Chamandagi gullarmiz.



AZIZ USTOZLAR

bir Boboyev musiqasi

To'liqin she'ri

Mayin

Do -im a -ziz hur -ma -tin -giz, U -nut -may -miz
meh -na -tin -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar,

A -ziz, a -ziz us -toz -lar. us -toz -lar.

Bo -shi -miz -ni si -la -din -giz, Biz -ga oq yo'l

ti -la -din -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar.

A -ziz us -toz lar. lar.

Doim aziz hurmatingiz,
Unutmaymiz mehnatingiz.

Naqarot:

Jonajonlar, mehribonlar,
Aziz ustozlar.

Boshimizni siladingiz,
Bizga oq yo'l tiladingiz.

Naqarot:

Sizlar bizning baxtimizsiz,
Dillardagi axtimizsiz.

Naqarot:

Sizga izzat, sizga hurmat,
Yosh qablarda bo'ling har vaqt.

Naqarot:

✓ AZIZ BO'STON – O'ZBEKISTON

*D. Omonullayeva musiqasi,
Mirpo'lat Mirzo she'ri*

♩ Quvnoq

The musical score is written for piano and voice. It consists of two systems of piano accompaniment and two systems of vocal melody with lyrics. The piano part is in 2/4 time, with a key signature of one sharp (F#). The vocal part is in the same time and key signature. The lyrics are in Uzbek and describe the beauty of the world and the land of Uzbekistan.

f

p

Bu dun-yo - da cha-man - lar ko'p.

p

Bu dun-yo - da va-tan - lar ko'p. Bar-cha-si-da yash - nar gul -lar.

mf

Bar-cha-si-da — yay - rar dil - lar

p